

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**


NOORGANIK KIMYO

fanidan

amaliy mashg'ulotlar bo'yicha

**5320500-biotexnologiya ta'lif yo'nalishlaridagi talabalarga
mo'ljallangan**

USLUBIY QO'LLANMA



TOSHKENT-2014

Tuzuvchilar: Ayupova M., Kurbonova M.A., Mirzaev U.M.-Toshkent, “Noorganik kimyo” fanidan amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.: ToshDTU., 2014. 160 b.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Noorganik kimyo” fanidan Toshkent davlat texnika universitetining I kursida tahsil olayotgan «Mexanika-mashinasozlik» fakulteti 5320500-Biotexnologiya ta’lim yo‘nalishlaridagi bakalavriat talabalariga mo‘ljallangan. Uslubiy qo‘llanma umumiylar va anorganik kimyo fanining nazariy asoslari, namunaviy misol va masalalarning yechilishi, test misollari, qisqacha nazariy ma‘lumotlar keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy – uslubiy kengashining qaroriga muvofiq nashr etildi.

Taqrizchilar: ToshDTU, “Umumiylar va analitik kimyo” kafedrasi,k.f.d., professor Ismailov I.I.

O‘zMU “Umumiylar va analitik kimyo” kafedrasi mudiri, dost. Nurmonov S.E.

SO‘Z BOSHI

Etiboringizga havola etilayotgan mazkur uslubiy qo‘llanma oily texnika o‘quv yurtlari barcha 1-kurs bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kimyoning boshlang‘ich tushunchalari bo‘yicha ma‘lum darajada bilimga ega bo‘lgan talabalarga umumiy kimyo va noorganik kimyodan bilim olishlariga yordam beradi.

Uslubiy qo‘llanmada mazmunan “Kimyo” fanidan Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan Oliy texnika o‘quv yurtlari uchun tasdiqlangan o‘quv dasturiga asosan yozilgan bo‘lib, unda o‘quv materiallarining ketma-ketligi, hajmi, bayon etilishi, nazariy va amaliy jihatdan talabalar tomonidan yo‘nalishlari doirassida egallashlari lozim bo‘lgan kimyoviy bilim va ko‘nikmalar hisobga olingan. Mavzularni o‘zlashtirish yengil bo‘lishi uchun darslikda tasviriy vosita (sxema va rasmlar) keltirilgan.

Mavzular bo‘yicha mustaqil taylorlanish uchun savollar, testlar, masalalar va ularni yechish yo‘llari berilgan .

Uslubiy qo‘llanmaning yaratilishida o‘zlarining qimmatli maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan “Umumiy kimyo” kafedrasining professor va dosentlariga chuqr minnatdorchilik bildiramiz.

KIRISH

Bugungi kunda kimyo sanoatining jadal rivojlanishi kimyo fanini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning asosiy omili bo‘lib qolmoqda. Kimyo fanini etarli darajada o‘rganishning zarur sharoiti albatta olingan nazariy bilimlarni laboratoriya ishlarini bajarish bilan amalgalashdi.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada laboratoriya ishlarini boshlashdan avval har bir ishga taalluqli mavzular bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, u tajribalar o‘tkazish, ularning kimyoviy va fizik-kimyoviy ma’nosini tushunish uchun zarur ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. “Noorganik kimyo” fanidan amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishdan asosiy maqsad kimyoning qonun va nazariy qoidalarini o‘zlashtirish, kimyoviy jarayonlar borishiga har xil sharoitlarining ta’sirini aniqlash, eng muhim elementlar va ular birikmalarining xossalari bilan tanishishga yordam beradi.

1-amaliy mashg‘ulot

1. Kimyoning asosiy tushunchalai va noorganik birikmalar sinflari

1.1. Simvollar va kimyoviy formulalar haqida tushuncha

Qadimgi olimlar ham elementlarni har xil simvollar bilan ifodalaganlar. Masalan: H – vodorod, O – kislород, N – azot. Hozirgi ilmiy simvollar va birikmalarning formulalari XIX asrdagina boshlandi.

Berselius 1813 yilda elementlarning simvollari sifatida ularning lotincha nomlari bosh harflarini olishini taklif qildi. Masalan: vodorodning lotincha nomi “Hydrogtnium” ning bosh harfi «H» ni vodorodning simvoli qilib, kislородning lotincha nomi “Oxydenium” ning bosh harfi “O” ni kislородни simvoli qilib, kaliyning nomi “Kalium” ning bosh harfi “K” ni kaliyning simvoli qilib oldi va hokazo.

Masalan, suv vodorod bilan kislорoddan iborat. HO belgisi suvning sifat belgilarini ko‘rsatadi. Ammo formula moddaning sifat tarkibini ham, miqdoriy tarkibini ham ko‘rsatishi lozim. Suvda bir og‘irlik qism vodorodga 8 og‘irlik qism kislород to‘g‘ri keladi. Kislородning bir atomi 16 n.b, demak suv molekulasida bir atom kislородга ikki atom vodorod to‘g‘ri keladi, ya’ni suvning formulasi H_2O bo‘ladi. Undan tashqari, elementlar bir - biri bilan ekvivalent miqdorda birikadilar.

O‘z navbatida “Valentlik” deb biror element atomlarining boshqa element atomlaridan ma’lum bir qismini biriktirib olish xossasiga aytiladi. Elementlarning valentligini bilgan holda ularning kimyoviy formulalarini yozish hamda o‘zaro reaksiya tenglamalarini tuzish mumkin.

1.2. Atom massasi va molekular massa. Modda miqdori. Mol

Moddalarning eng kichik zarralari molekulalar, elementlarning eng kichik zarrachasi esa atomlardir. Oddiy moddaning molekulalari bir element atomlaridan murakkab moddaning molekulalari esa turli element atomlaridan tuziladi.

Moddaning eng kichik va mustaqil mavjud bo‘la oladigan zarrachasi molekula deb ataladi.

Murakkab va oddiy modda molekulalarining tarkibiga kiruvchi elementlarning kichik zarrachasi atom deyiladi.

Bir xil element atomlaridan oddiy moddalar, har xil element atomlarining birikishidan murakkab moddalar hosil bo‘ladi.

Elementlarning atom massasini aniqlashga birinchi bo‘lib ingliz olimi D.Dalton urindi. O‘sha davrda fan va texnika darajasi past bo‘lganligidan,

atomlarning absolut massasini aniqlash mumkin emas edi. Shuning uchun Dalton eng yengil H atomining massasini shartli ravishda «1» deb oldi. Shunga asoslanib boshqa elementlarning nisbiy atom massasini topdi.

Avogadro qonuni kashf etilgandan so‘ng elementlarning absolut atom massalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘linsada, nisbiy atom massalari o‘z ahamiyatini saqlab qoldi, chunki absolut atom massalari juda kichik miqdor bo‘lgani uchun ularni hisoblash qiyin.

Vodorodning atom massasi 1 deb qabul qilinsa, O₂ ning atom massasi 15,88 bo‘ladi, ya‘ni kasr son. Ko‘p elementlarning atom massasi ham shunday. Bu noqulaylikni bartaraf qilish uchun kislородning atom massasini 16 deb qabul qilindi, bu son kislород birligi deyiladi va qisqacha k.b deb yoziladi.

Elementlarning atom massalarini aniqlash uchun qabul qilingan vodorod va kislород izotoplari juda barqaror bo‘lmaganligi uchun 1969 yilda D.I.Mendeleyevning elementlar davriy qonuni va davriy jadvalining 100 yilligiga bag‘ishlangan syezdda elementlar nisbiy atom massasini uglerodning atom massasi 12 ga teng bo‘lgan izotopiga nisbatan aniqlash qabul qilindi va u uglerod birligi deyiladi, ya‘ni elementning nisbiy atom massasi deb uglerod atom massasining 1/12 qismidan necha marta kattaligini ko‘rsatadigan massa (son) ga aytildi.

Shunday qilib, atom massasi atomning uglerod birligi bilan ifodalangan massasidir.

Molekular massa molekulaning uglerod birligi bilan ifodalangan massasidir.

Moddaning molekular massasiga son jihatdan teng qilib gramm hisobida olingan miqdori gramm molekula deb ataladi.

Masalan, suvning molekular massasi 18 uglerod birligiga teng, demak, suvning molekular og‘irligi 18 g, bu 1g mol.

Xuddi shuningdek:

Element atomining atom massasiga son jihatdan teng qilib gramm hisobida olingan miqdori gramm – atom deyiladi. Masalan, 1,008 g vodorod bilan g – atom 2,016 g. Vodorod ikki gramm atom (buni bir gramm molekula deyish ham mumkin). Gramm – atom g A bilan belgilanadi.

Keyingi vaqtida gramm atom va gramm molekula o‘rniga modda miqdori qo‘llanilmoqda.

$$n = m/M \quad (1);$$

bunda: n – modda miqdori (mollarda).

m – moddaning g hisobidagi massasi.

M – moddaning molyar massasi.

(1) formuladan moddaning molar massasini topish mumkin.

$$M = m / n \quad (2);$$

Molyar massa – bu modda massasining modda miqdoriga bo‘lgan nisbatidir.

Masalan, 1) massasi 10,8g bo‘lgan metall namunasida aluminiy moddasining qanday miqdori bor?

$$M(Al) = 27 \text{ g/mol}; \quad n(Al) = \frac{10,8}{27} = 0,4 \text{ mol}$$

(2) Massasi 12g bo‘lgan oltingugurt (VI)-oksidda qancha miqdor modda bor?

$$M(SO_3) = 80 \text{ g/mol}; \quad n(SO_3) = \frac{12}{80} = 0,15 \text{ mol.}$$

1.3. Kimyoviy birikmalarning formulalarini keltirib chiqarish

Odatda kimyoviy formulalar ikkiga bo‘linadi. Oddiy formula va haqiqiy formula.

Oddiy formula kimyoviy birikmalarning oddiy og‘irlilik tarkibini bildiradi.

Haqiqiy formula birikmalardagi elementlarning haqiqiy sonini ko‘rsatadi.

Kimyoviy birikmalarning oddiy formulasini chiqarish uchun ularning og‘irlilik tarkibi va atom og‘irliklarini bilish yetarlidir.

1-misol. Tarkibida 68,4% xrom bo‘lgan oksidning formulasini keltirib chiqaring. Birikmada ($A_{Cr} = 52$)

Yechish: xrom oksididagi xrom atomlari sonini X bilan ifodalaymiz. U holda xromning atom og‘irligi $52x$ va $O_2 = 16 \text{ g}$ bo‘lganligi uchun, xrom oksidi molekulasi dagi xrom atomining umumiy og‘irligi $52x$, kislород atomining umumiy og‘irligi $16y$ ga teng bo‘ladi. Bu og‘irlilik miqdorlarining o‘zaro nisbati xrom va kislородлarning umumiy og‘irliklari nisbatiga teng bo‘ladi.

$$52x : 16y = 68,4 : 31,6.$$

Noma’lumlarni koeffitsientlaridan qutulish uchun.

$$x : y = 68,4 : 31,6; \quad x : y = 1,32 : 1,98$$

Molekulada faqat butun son bo‘lganligi uchun ikkala sonni 1,3 ga bo‘lamiz.

$$x : y = 1:1,5; \quad x : y = 2:3$$

Demak, Cr_2O_3 .

Kimyoviy birikmalarning haqiqiy formulalarini keltirib chiqarish uchun ularning og‘irlilik tarkibi va atom og‘irliliklaridan tashqari molekulyar og‘irligini ham bilish shart.

Masalan:

2-misol. Sirka kislotasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, unda 2,1 og‘irlilik qism uglerodga, 0,35 og‘irlilik qism vodorod va 2,8 og‘irlilik qism kislorodga to‘g‘ri keladi. Sirka kislotasini $\text{Mr} = 60\text{g}$ ga teng.

Sirka kislotasining molekular formulasini keltirib chiqarish talab etiladi.


$$\text{Yechish: C:H:O} \quad x : u : z = 2,1; 0,35; 2,8$$

$$\frac{2,1}{12} : \frac{0,35}{1} : \frac{2,8}{16}$$

$$0,175 : 0,35 : 0,175.$$

$$x : y : z = 1 : 2 : 1.$$

Demak, sirka kislotasining oddiy formulasi CH_2O , lekin sirka kislotasining $M = 60\text{ g}$.



1.4. Noorganik birikmalarning asosiy sinflari

Moddalarni sinflarga bo‘lish ularning xususiyatlarini mukammal o‘rganish uchun qulaylik yaratadi. Shu sababli anorganik moddalar tarkibi va xossalariiga qarab quyidagi sinflarga bo‘linadi: 1. Oksidlar; 2. Asoslar; 3. Kislotalar; 4. Tuzlar.

1.5.Oksidlar

Oksidlar tabiatda eng keng tarqalgan murakkab moddalardan hisoblanadi. Ularning tarkibi ikki elementdan tashkil topgan bo‘lib, biri kisloroddan iborat.

Kislorodning barcha elementlar bilan hosil qilgan birikmalari oksidlar deyiladi.


Oksidlarning ko‘pchiligi odatdagи sharoitda qattiq (metallarning barcha oksidlari: MgO, CaO, CuO...), ayrimlari gaz (metallmaslar oksidlari: CO₂, SO₂, NO₂) va suyuq (N₂O) moddalar.

Tuz hosil qilish va hosil qilmaslik jihatidan oksidlar ikki guruhga bo‘linadi. Bularga N₂O - azot (I) – oksidi, NO – azot (II) – oksidi va CO – karbon (II) – oksidlarini misol qilish mumkin. Bu oksidlar kimyoviy jihatdan faol bo‘lmaganligi sababli, ular tuz hosil qila olmaydi.


Ikkinci turdagи oksidlar tuz hosil qiluvchi oksidlar bo‘lib, ular o‘z navbatida kimyoviy xossasiga ko‘ra uch toifaga bo‘linadi: 1. Asosli oksidlar; 2. Kislotali oksidlar; 3. Amfoter oksidlar.

1. Asosli oksidlar. Metallarning kislород bilan hosil qilgan ko‘pchilik oksidlari asosli oksid hisoblanadi. Ularga Na₂O, K₂O, CaO, MgO, FeO kabi oksidlar misol bo‘la oladi. Bu oksidlarga asoslar muvofiq kelgani sababli, ular asosli oksidlar deyiladi.


Olinishi: 1. Asosli oksidlar metallar bevosa та kislород bilan birikkanda hosil bo‘ladi:




2. Tuzlarning parchalanishidan hosil bo‘ladi:



3. Asoslar (gidrooksidlar) ning parchalanishidan hosil bo‘ladi:




Nomlanishi. Asosli oksidlarni nomlashda oksidning nomi metall nomiga “oksid” so‘zi qo‘shib hosil qilinadi:





Agar oksid tarkibidagi metall o‘zgaruvchan oksidlanish darajasiga ega bo‘lsa, u vaqtida metallning nomidan so‘ng uning valentligi rim raqamida yozilib, keyin «oksid» so‘zi qo‘shib o‘qiladi: FeO – temir (II) – oksidi, Fe₂O₃ – temir (III) – oksidi, Cu₂O – mis (I) – oksidi, CuO – mis (II) – oksidi.

Kimyoviy xossalari. 1. Ayrim asosli oksidlar oddiy sharoitda suv bilan birikib, suvda eriydigan asos (ishqor)larni hosil qiladilar. Ularni ishqorlar ham deyiladi:



2. Kislotalar bilan reaksiyaga kirishganda tuz va suv hosil qiladi:





3. Kislotali oksidlar bilan reaksiyaga kirishganda tuz hosil bo‘ladi:





2. **Kislotali oksidlar.** Metallmas (metalloid) larning kislordan bilan hosil qilgan birikmalari, ba‘zi metallarni yuqori oksidlanish darajadagi oksidlari kislotali oksidlar hisoblanadi. CO_2 , SO_2 , N_2O_5 , P_2O_5 , SO_3 , CrO_3 , MnO_3 , Mn_2O_7 va boshqalar misol bularga misol bo‘la oladi. Kislotali oksidlarga tegishli kislotalar muvofiq kelgani uchun kislotali oksidlar deyiladi. Ya‘ni CO_2 va H_2CO_3 (karbonat kislota) SO_2 va H_2SO_3 (sulfit kislota) muvofiq keladi. Bunga CrO_3 xrom (VI) – oksidi – H_2CrO_4 , Mn_2O_7 – marganes – (VII) oksidi - HMnO_4 misol bo‘la oladi.

Olinishi. 1. Kislotali oksidlar metallmaslar to‘g‘ridan – to‘g‘ri kislordan bilan birikkanda hosil bo‘ladi:



2. Murakkab moddalarning yoqilishi:



3. Kislordan kislotalar parchalanganda hosil bo‘ladi:



4. Tuzlarning parchalanishidan hosil bo‘ladi:



Nomlanishi. Kislotali oksidlarni nomlashda metallmasning nomidan so‘ng, uning nomi yoziladi va oksid so‘zi qo‘shiladi:

CO_2 – uglerod (IV) – oksidi; N_2O_3 – azot (III) – oksidi.

SO_3 – oltingugurt (VI) – oksidi; P_2O_5 – fosfor (V) – oksidi.

Kislotali oksidlar “angidridlar” ham deyiladi. Bunda avval mos keladigan kislota nomi, so‘ng “angidrid” so‘zi qo‘shib aytildi:

CO_2 – karbonat angidrid; SO_3 - sulfat angidrid;


SO_2 - sulfit angidrid; P_2O_5 – fosfat angidrid.

Kimyoviy xossalari. 1. Kislotali oksidlar to‘g‘ridan – to‘g‘ri suv bilan birikib, tegishli kislotalarni hosil qiladilar:








2. Asosli oksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi.




3. Asoslar bilan reaksiyaga kirishganda normal yoki nordon tuz va suv hosil bo‘ladi:




3. **Amfoter oksidlar.** Reaksiyaning sharoitiga qarab ham asos, ham kislota xossalarini namoyon qiladigan oksidlar amfoter oksidlar deyiladi. Masalan, rux, aluminiy, qalay, qo‘rg‘oshin, xrom (III), marganes (IV) va berilliy oksidlari amfoter xossaga ega. Ular quyidagi formula ko‘rinishiga ega bo‘ladi:




Amfoter oksidlar oddiy sharoitda qattiq moddalar. Amfoter oksidlar suv bilan bevosita birikmaydi, lekin ular ham asos, ham kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan;




asosli oksid hamda kislota, rux sulfati



kislotali oksid hamda asos, natriy sinkati



asosli oksid hamda kislota aluminiy sulfat;





kislotali oksid hamda asos.

Ba’zi o‘zgaruvchan oksidlanish darajasiga ega bo‘lgan metallar kislorod bilan turli xossadagi har xil oksidlarni hosil qiladi. Masalan:



Marganes metali kislorod bilan reaksiyaga kirishganda 5 ta oddiy va aralash oksidlarni hosil qiladi. Ularning kimyoviy formulasi quyidagicha:



Mn_2O_7 – marganes (VII) – kislotali oksid.

1.6. Asoslar

Manfiy qismi gidrooksid – ion OH^- – bo‘lgan birikmalar asoslar deyiladi. Asoslar metall ioni va metall valentligiga teng bo‘lgan gidrooksid ionlaridan tashkil topgan. Ularning umumiy formulasi: $Me(OH)_n$, Me – metall (yoki metall xarakteriga ega bo‘lgan radikal, masalan, NH_4^+), n – gidrooksidlar soni.

Nomlanishi. Asoslarning nomlanishida metall nomiga gidrooksid so‘zi qo‘sib aytildi. Masalan, $LiOH$ – litiy gidrooksid, $Ba(OH)_2$ – bariy gidrooksid. Metall o‘zgaruvchan valentlik namoyon qilsa, bir necha gidrooksidlar hosil qilishi mumkin. Bu holda metall nomidan so‘ng qavs ichida rim raqami bilan metallning oksidlanish darajasi yoziladi. Ya‘ni, $Mn(OH)_2$ - marganes (II) gidrooknsidi; $Mn(OH)_3$ - marganes (III) gidrooknsidi.

Suvda eriydigan asoslar ishqorlar deyiladi. (Mendelyev davriy jadvalining I – II guruhi asosiy guruhcha elementlari hosil qiladi).

Ayrim gidrooksidlar xossalariiga va ishlatalishiga qarab ham alohida nomlanadi.


NH_4OH – novshadil spirti, ammoniy gidrooksid.

KOH – o‘yuvchi kaliy, kaliy ishqori.

$Ca(OH)_2$ – so‘ndirilgan ohak.

Olinishi. Asoslarning olinishida, asosan, quyidagi usullar amaliy ahamiyatga ega.





1. Aktiv metallarning suv bilan birikishi. Ishqoriy va ishqoriy – yer metallari suv bilan birikib, gidrooksid va vodorod hosil qiladi:





2. Ko‘pgina asosli metall oksidlari suv bilan birikib, asos hosil qiladi:



3. Tuzlarning ishqorlar bilan birikishi. Tegishli metallarning suvda yaxshi eriydigan tuzlarga ishqorlar ta’sir ettirib, suvda erimaydigan asoslar olinadi.



4. Tuzlarning suvli eritmalari elektrolizi. Bu usuldan ko‘pgina miqdorlar olinishida foydalaniladi. Masalan, osh tuzining eritmasi elektroliz qilinganda eritmada o‘yuvchi natriy hosil bo‘ladi.





5. Ammoniy gidrooksidi ammiak gazi (NH_3) suvda eritib olinadi:





Kimyoviy xossalari



1. Asoslar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi. Bunday reaksiyalar neytrallanish reaksiyalari deyiladi.





2. Asoslar kislotali oksidlar bilan ham reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi:





3. Asoslar tuzlar bilan reaksiyaga kirishib, yangi tuz va yangi asos hosil qiladi.







4. Ishqorlar NaOH va KOH qizdirishga juda chidamlidir. Lekin suvda erimaydigan asoslar qizdirilganda tezda parchalanadi.



5. Ba’zi asoslar ham kislotalar bilan ham ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi. Bular amfoter gidrooksidlar deyiladi. Ularga $\text{Be}(\text{OH})_2$, $\text{Zn}(\text{OH})_2$, $\text{Al}(\text{OH})_3$, $\text{Sn}(\text{OH})_2$, $\text{Pb}(\text{OH})_2$, $\text{Cr}(\text{OH})_3$, $\text{Mn}(\text{OH})_4$ misol bo‘la oladi.



Amfoter gidrooksidlar suvda erimaydi. Ular kislota va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi.




Yuqori negizli asoslар quyidагича ионланади:



1). Натрий асосининг ионланishi:








2). Магний гидрооксиднинг ионланishi:



3). Алюминий гидрооксиднинг ионланishi:



Ayrim асосларнинг тузилиши quyidагича боқлади:




1.8. Kislotalar

Suvli eritmalarida vodorod kationidan boshqa musbat ion (kation) hosil qilmaydigan murakkab kimyoviy birikmalar kislotalar deyiladi. Kislotalarga kislotali oksidlarning gidratlari hamda ayrim metallmaslarning vodorodli birikmalarining suvdagi eritmalarini kiradi.


Ularning tarkibida kislород бор, юки ўзигига қараб 2 гуруга: кислородли ва кислородсиз кислоталарга ажратиш мумкин.

Кислоталарни гуруларга бо'linishi.



Кислоталар таркебидаги водород ионларининг сонига қараб бир негизли, иккι негизли, уч негизли ва то'рт негизли бо'лади.

Кислоталарни негизланиш схемаси.



Nomlanishi. Кислородсиз кислоталарни номлашда аввал кислота хосил qiluvchi element nomi aytilib, oxiriga «id» qo'shimchasi qo'shiladi.

HF – fторид кислота

HCl – хлорид кислота


H₂S – сульфид кислота

HBr – бромид кислота


Kislородли кислоталарнинг номи кислотаhosil qilган element nomiga uning valentligini xarakterlaydigan, ya'ni quyи valentligiga -it, yuqori valentligiga -at qo'shimchasi qo'shib o'qiladi:

HNO_2 – nitrit kislota	HMnO_4 – permanganat kislota
HNO_3 - nitrat kislota	H_2MnO_4 – manganat kislota
H_2SO_3 - sulfit kislota	H_2SiO_3 - silikat kislota
H_2SO_4 - sulfat kislota	H_3PO_4 - fosfat kislota
$\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_3$ -tiosulfat kislota	$\text{H}_4\text{P}_2\text{O}_7$ - pirofosfat kislota
HClO -gipoxlorit kislota	H_3AsO_3 - arsenit kislota
HClO_3 – xlorat kislota	H_3AsO_4 - arsenat kislota
HClO_4 - perxlorat kislota	H_3BO_3 – borat kislota


Olinishi. 1. Kislotali oksidlar (angidridlar)ni suvda eritish:




2. Metallmaslarning to'g'ridan-to'g'ri vodorod bilan ta'sirlanishi natijasida:




3. Tuzlarga kislota ta'sir ettirib olinadi:




4. Metallmaslarni kuchli kislotalar ta'sirida oksidlab olinadi:




Kimyoviy xossalari. Kislotalar asosli va amfoter oksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladilar:






2. Kislotalar gidrooksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi. Bu reaksiya neytrallanish reaksiyasi deyiladi:








3. Harorat ta'sirida parlanib, tegishli oksid va suv hosil qiladi.



4. Kislotalar metallar bilan o'zaro ta'sirlashadi.



Ba'zi kislotalarning tuzilishi kislorodli kislotalarning tuzilish formulasini yozish uchun kislota hosil qiluvchi element bilan avval vodorod atomlarini kislorod atomlari orqali, so'ngra qolgan kislorod atomlari qo'shbog' orqali bevosita birlashtiriladi:



1.9. Tuzlar

Asos bilan kislota qoldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar tuzlar deb ataladi. Ular kimyoviy xossalariiga ko'ra o'rta – normal, nordon, asosli, qo'sh va kompleks tuzlarga taqsimlanadi.

1. O'rta tuzlar – tarkibi asos qoldig'i atomi va kislota qoldig'idan iborat bo'ladi. Umumiy formulasi $M_x E_u$ yoki $M_x E_u O_z$. O'rta tuzlarga: NaCl , KF , LiI , BaSO_4 , CaCO_3 , $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$, FeSO_4 , NH_4Cl , NH_4NO_3 va boshqalar misol bo'ladi.

2. Nordon tuzlar – tarkibi metall atomi, vodorod atomi va kislota qoldig'idan tashkil topgan. Ularga quyidagilar: NaHCO_3 , $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$, $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$, K_2HPO_4 , LiHS , $\text{Mg}(\text{HS})_2$, KHSO_3 , NaH_2PO_4 misol bo'ladi.

3. Asosli tuzlar – tarkibi metall atomi, kislota qoldig'i va OH – gidrooksid guruhlaridan iborat. Ularga misol qilib: $\text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$, $(\text{CuOH})_2\text{CO}_3$,

$\text{Fe(OH)(CH}_3\text{COO)}_2$, Al(OH)SO_4 , $\text{Al(OH)}_2\text{Cl}$, $\text{Fe(OH)}_2\text{NO}_3$ larni olish mumkin.

4. Qo'sh tuzlar - tarkibida bir xil kislota qoldig'i va 2 xil metall atomlari saqlagan tuzlar. Bunday tuzlarga: $\text{KAl(SO}_4)_2 * 12 \text{H}_2\text{O}$;



5. Kompleks tuzlar. Tarkibida qattiq holda va eritmada mustaqil mavjud bo'la oladigan kompleks ionlar saqlagan moddalar: $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$; $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$; $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$; $\text{Na}_2[\text{Zn}(\text{OH})_4]$ kiradi.

Tuzlarning nomlanishi. O'rta tuzlarda metall nomiga (valentligi) kislota qoldig'ining nomini qo'shib aytildi: Na_2SO_4 – natriy sulfat; FeCl_2 temir (II) xlorid; FeCl_3 – temir (III) xlorid; $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$ – xrom (III) sulfat.

Nordon tuzlarda metall (valentligi) va kislota qoldig'i nomiga, agar tuz tarkibida bitta vodorod atomi bo'lsa «gidro», ikkita bo'lsa "digidro" so'zi qo'shib aytildi. KHCO_3 – kaliy hidrokarbonat; BaHPO_4 – bariy hidrofosfat $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ – ammoniy digidrofosfat, NaH_2BO_3 – natriy hidroborat.

Asosli tuzlarda metall nomi (valentligi) va kislota qoldig'i nomiga "gidrokso" so'zi qo'shib nomlanadi: $\text{Ca}(\text{OH})\text{NO}_3$ – kal'siy hidroksinitrat, $\text{Mg}(\text{OH})\text{Cl}$ – magniy hidroksixlorid; $\text{Fe}(\text{OH})_2\text{Cl}$ – temir(III) – digidroksoxlo-rid, $\text{Al}(\text{OH})_2\text{CH}_3\text{COO}$ – aluminiy digidroksoatsetat, $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2 * 12\text{H}_2\text{O}$ – kaliy aluminiy sulfat.



Kompleks tuzlarda avval kation, so'ng anion nomi kislota qoldig'ining lotincha soni, uning nomi, metall nomi (valentligi) va metall (yoki kislota qoldig'i) nomi aytildi: $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ - kaliy geksatsianoferrat (III); $\text{K}_2[\text{PtCl}_4]$ - kaliy tetraxloroplatinat (II).

Kimyoviy xossalari


1. Hamma tuzlar harorat ta'sirida parchalanadi:




2. Nordon tuzlar ishqor va kislotalar bilan ta'sirlanib, o'rta tuz va suv hosil qiladi:




3. Asosli tuzlar ishqor, kislota bilan birikib, asos va yangi tuz hosil qiladilar:



4. O'rta tuzlar ham ishqor va kislotalar bilan ta'sirlanib, quyidagilarni hosil qiladilar:




5. Tuz eritmalariga metall ta'sir ettirilsa, yangi tuz va metall ajralib chiqadi:




Tuzlarning olinishi


1. Metallarning metallmaslar bilan ta'siri:




2. Metallarning kislota, ishqor va tuzlar bilan ta'siri:




3. Oksidlarning kislotalar va gidrooksidlar bilan reaksiyasi:




4. Gidrooksid va kislotalarning o'zaro ta'siri:





5. Tuzlarning o'zaro ta'sirlashuvi:




6. Tuzlarning kislota va ishqorlar bilan ta'sirlashuvi:




7. Tuzlarning metallmaslar bilan ta'sirlanishi:




Struktura formulalari. Tuzlarning struktura formulalarini tuzishda kislota va asoslarning struktura formulalariga e'tibor berish kerak .




Sulfat kislota




Natriy sulfat tuzi




Kaliygidro sulfat tuzi



Aluminiy gidrooksidi




Aluminiy
digidroksinitrat
tuzi



Aluminiy
gidrooksinitrat
tuzi

Yuqoridagi mavzularni yakunlagan holda anorganik birikma sinflari o‘zaro quyidagicha bog‘langan deb aytish mumkin:



1.1.rasm. Anorganik birikmalarning sinflanish sxemasi.

Namunaviy masalalar yechish

1-masala: Sistematisk nomenklaturaga koʻra quyidagi tuzlarni nomlang.

Yechish:

1.1-jadval. Sistematisk nomenklatura boʻyicha tuzlarning nomlanishi.

Modda formulasi	sistematisk nomi	Foydalilanligan nomi
AgBr	kumush (I)-bromid	kumush (I)-bromid
KClO	kaliy (I)-oksooklorat	kaliy gipoklorit
NaHSO ₄	vodorod-natriy tetraoksosulfat	natriy gidrosulfat
Al(OH) ₂ Cl	Aluminiy digidroksiklorid	Aluminiy digidroksiklorid

2-masala: Quyidagi oʻzgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan reaksiyalarni yozing. $\text{Na} \rightarrow \text{NaOH} \rightarrow \text{NaHCO}_3 \rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NaCl}$


Yechish:

- a) $2\text{Na} + 2\text{H}_2\text{O} = 2\text{NaOH} + \text{H}_2$
- b) $\text{NaOH} + \text{CO}_2 = \text{NaHCO}_3$
- c) $2\text{NaHCO}_3 \rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- d) $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- e) $\text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{BaCl}_2 = 2\text{NaCl} + \text{BaSO}_4 \downarrow$

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

1. Oksidlarning qanday turlarini? Ularning har biriga ikkitadan misol yozing.

2. Quyidagi oksidlarning tipini aniqlab, ularning; a) asosli, b) kislotali, c) amfoter xossalalarini namoyon qiladigan reaksiya tenglamalarini yozing.



3. Quyidagi hidroksidlarning hosil qilish reaksiya tenglamalarini yozing:



4. a) Oʻyuvchi natriy, b) nitrat kislota quyidagi moddalarning qaysilari bilan reaksiyaga kirishadi:



- Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Quyidagi kislotalarini nomlang va grafik formulalarini yozing;
 - a) HCl, H₂SO₃, H₂S,
 - b) HPO₃, H₃PO₄, H₄TiO₄
 - c) HCrO₂, H₂CrO₄, H₂Cr₂O₇.

6. Quyidagi reaksiya tenglamalarini tugallang;

N ₂ O ₃ +NaOH=.....	Ca(OH) ₂ +Al(OH) ₃ =.....
NO ₂ +Sr(OH) ₂ =.....	Sn(OH) ₂ +H ₂ SO ₄ =.....
SO ₃ +Al(OH) ₃ =.....	Cr ₂ O ₃ +HCl=.....
N ₂ O ₅ +Ba(OH) ₂ =.....	Al ₂ O ₃ +NaOH=.....
CaO+CO ₂ =.....	Al(OH) ₃ +H ₂ SO ₄ =.....

7. Quyidagi tuzlarning molekulyar va grafik formulalarini yozing;
 - a) aluminiy xlorid, b) bariy gidrosulfid, c) temir (III)-gidrokarbonat,
 - d) kalsiy hidrofosfat, e) mis hidroksonitrat.

8. Quyidagi o'rta, nordon va asosli tuzlarni nomlang va grafik formulalarini yozing;

a) NaHCO₃, b) K₂SiO₃, c) KMnO₄, d) Ca(H₂PO₄)₂,
 e) (CaOH)₂SO₄, j) NaH₂PO₄, z)K₂Cr₂O₇, k) (BeOH)₂CO₃.

9. Quyidagi reaksiyalarda nordon tuz hosil bo'lishi kerak bo'lgan reaksiya tenglamalarini tugallang;

1) NaOH+H ₂ CO ₃ =....	4) Ba(OH) ₂ +CO ₂ =.....
2) Ca(OH) ₂ +H ₃ PO ₄ =.....	5) Al(OH) ₃ +H ₃ PO ₄ =....
3) LiOH+H ₂ SO ₄ =...	6) Cr(OH) ₃ +H ₂ SO ₄ =....

10. Quyidagi ketma-ketlikni amalg'a oshiruvchi reaksiya tenglamalarini yozing;

1. Na → NaOH → Na₂SO₄ → NaNO₃
2. Ba → BaO → Ba(OH)₂ → Ba(NO₃)₂ → BaOHNO₃
3. C → CO₂ → Na₂CO₃ → Ca₂CO₃ → CO₂ → H₂CO₃
4. Zn → ZnSO₄ → Zn(OH)₂ → NaZnO₂ → ZnCl₂ → ZnCO₃ → ZnO



2-amaliy mashg'ulot

2.1. Kimyoning asosiy qonunlari

Atom-molekular ta'limot nuqtai nazaridan kimyoning asosiy qonunlariga moddalar massasining saqlanish qonuni, tarkibining doimiylik qonuni, karrali nisbatlar qonuni, xajmiy nisbatlari qonuni, ekvivalentlar qonuni, Avogadro qonuni va energiyaning saqlanish qonuni kiradi.

Moddalar massasining saqlanish qonuni. Bu qonun dastlab M.V. Lomonosov (1748) keyinchalik A. Lavuazye (1788) tomonidan

ta'riflangan. **Reaksiyaga kirishayotgan moddalar massasining yig'indisi reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalar massasining yig'indisiga teng.**




Bu qonun barcha kimyoviy hisoblashlarda qo'llaniladi.

Tarkibning doimiylik qonuni birinchi marta 1781 - yilda Laveuazye tomonidan kashf etilgan. U karbonat angidrid gazini 10 xil usul bilan hosil qildi va gaz tarkibida uglerod bilan kislород orasida massalari nisbati 3:8 ekanligini aniqladi. 1803 yili Fransuz Bertole o'zining ba'zi bir tajribalariga asoslanib, bu qonunga qarshi chiqdi. U ikki elementdan tarkibi o'zgarib boruvchi bir necha birikma hosil bo'ladi, ya'ni tarkib uzlusiz o'zgaradi, degan fikrga keldi. Shu vakillardan Aruer Bertolening yuqoridagi xulosasiga qarshi chiqib, o'zining qator tahlillari bilan toza birikmalarining miqdoriy tarkibi bir xil bo'lishini isbotladi.

Qonuning tarifi. *Har qanday kimyoviy toza modda qayyerda bo'lishidan va qanday usulda olinishidan qat'iy nazar doimo bir xil sifat va miqdor tarkibiga ega bo'ladi.*


Bu qonunning ma'nosini quyidagi misol bilan tushuntirsa bo'ladi.

Osh tuzi - NaCl moddasini quyidagi reaksiyalar bo'yicha hosil qilish mumkin.




Tenglamalardan ko'rinish turibdiki, uchala reaksiya (uchta usul) bilan hosil qilingan NaCl moddasi tarkibida 1 atom Na ga 1atom Cl to'g'ri keladi. Bu modda qayyerda saqlanmasin (laboratoriya, idishda va hokazo), uning tarkibi NaCl ligicha qolaveradi.


yoki CaO ni hosil qilish reaksiyalarida ko'riash mumkin.



Gey - Lyussakning xajmiy nisbatlar qonuni. Fransuz olimi Gey Lyussak 1808 - yilda o'zining qator tajribalariga asoslanib, xajmiy nisbatlar qonunini ta'rifladi: *kimyoviy reaksiyalarga kirishuvchi gazlarning xajmlari o'zaro va reaksiya natijasida hosil bo'lgan gazlarning xajmlari bilan oddiy butun sonlar nisbati kabi nisbatda bo'ladi*. Masalan:




Bir xajm vodorod bir xajm xlor bilan reaksiyaga kirishib, ikki xajm HCl hosil qiladi.



Bir xajm O bilan ikki xajm H reaksiyaga kirishib, ikki xajm suv bug'i hosil qiladi.

Demak, kislород bilan vodorod xajmlari nisbati 1:2, H xajmining suv bug'i xajmiga nisbati 2:2 O, xajmining suv bug'i xajmiga nisbati 1:2, gidrid, ya'ni ular xajmining nisbati o'zaro butun sonlar nisbati kabitidir. Is gazi (CO) ning yonish reaksiyasi tenglamasida



reaksiyaga ikki xajm uglerod (II) – oksidi bir xajm kislородни biriktirganda ikki xajm uglerod (IV) – oksidi hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Bunda gazlarning xajmiy nisbatlari 2 : 1 : 2 bo'ladi.

Demak, gazlar xajmlarining kichik butun sonlar nisbatida bo'lishi har ikki gaz moddalari molekulasidagi atomlarning nisbatlaridan kelib chiqadi. **Avogadro qonuni.** Kimyoviy reaksiyalar gazsimon moddalar ishtirokida ham boradi. Gazsimon moddalar ishtirokida boradigan reaksiyalardagi miqdoriy nisbatlarni 1811 yilda Italyan olimi A. Avogadro o'rganib, quyidagi qonunni yaratdi.

Bir xil sharoit (bir xil bosim va bir xil haroratda) da teng xajmda olingan gazlardagi molekulalar (atomlar) soni teng bo'ladi. Avogadro qonunidan ikkita xulosa kelib chiqadi.

a) Normal sharoit ($T=273$ K, $P=101,325$ kPa) da har qanday gazsimon moddaning “1 mol” miqdori 22,4 litr xajmni egallaydi va bunga gazlarning molar xajmi deyiladi. V molar = $V_0=22,4$ l/mol xajmda belgilanadi. Bu xulosaga ko'ra 1 mol N_2 gazi normal sharoitda 22,4 l, 0,1 moli 2,24 l xajmni egallaydi.


b) Gazsimon moddaning xajmi va miqdori uning tarkibidagi zarracha (molekula, atom) lar soniga bevosita bog'liqdir.

Shunga kora, ikkinchi xulosa kelib chiqadi: Har qanday moddaning “1 mol” miqdori tarkibida $6,02 \cdot 10^{23}$ ta zarracha (molekula, atom) bolibladi. Bu son $N=6,02 \cdot 10^{23}$ Avogadro soni deyiladi.

Demak, 1 mol H_2 tarkibida $6,02 \cdot 10^{23}$ ta vodorod molekulasi bolib, 22,4 l hajimni egallaydi. 10 mol H_2 da $6,02 \cdot 10^{24}$ ta molekula bolib, 224 l xajmni egallaydi. 0,5 mol O_2 gazi 16 g bolib, $3,0 \cdot 10^{23}$ ta molekula bor, ular 11,2 l xajmni egallaydi. 2,24 l Cl_2 gazida $6,02 \cdot 10^{22}$ ta molekula bolib, uning miqdori 0,1 mol va massasi 7,1 g bolibladi.

Avogadro fikricha, gaz holatidagi oddiy moddalarning vodorod, kislород, azot, xlor va boshqalarning mayda zarrachalari molekulalar bolib, ular ikki atomdan tuzilgan H_2, O_2, Cl_2, N_2 va boshqalar (F_2, Br_2, J_2)

Avogadro qonuni asosida xajmiy nisbatlar qonuni juda qulay isbotlanadi. Masalan: O_2 va N_2 ning har qaysi molekulasi ikki atomdan iborat H_2 ning ikki molekulasi, O_2 ning butta molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi. O_2 ning bir atomi H_2 ning, ikki atomi bilan birikib, bir molekula suv hosil qiladi. O_2 ning ikkinchi atomi qolgan H_2 molekulasi bilan birikib, yana bir molekula suv hosil qiladi, yani



Gazning nisbiy zichligi. Har qanday gazsimon moddaning zichligi xajm birligidagi (1 litr) gazsimon moddaning massasidir. U D bilan belgilanadi. Gazlarning zichligiga asoslanib, ularning bir-biriga nisbatan zichligi (nisbiy zichligi D) hisoblanadi. Gazlarning nisbiy zichligi deb, bir xil sharoitda teng xajmdagi gazlar massalarinig ozaro nisbatiga aytiladi. Gazlarning nisbiy zichligi gazlar molekular massalarining nisbatiga tengdir:

$$D = \frac{M(A)}{M(B)}$$

Masalan: Kislородning vodorodga nisbatan zichligi:

$$D(H_2) = \frac{M(O_2)}{M(H_2)} = \frac{32}{2} = 16,00$$

Demak, kislородning vodorodga nisbatan zichligi $D(H_2) = 16$, kislород gazining 1 litri vodorod gazining 1litriga nisbatan 16 marta ogzir bolibladi. Gazlarning nisbiy zichligi kopincha vodorodga $D(H_2)$, havoga (D_{havo}) yoki boshqa biron bir gazga nisbatan hisoblanadi. Gazlarning nisbiy zichligidan foydalanib, ularning molekular massasi hisoblanadi. Masalan, tarkibi uglerod va vodoroddan iborat gazsimon moddaning vodorodga

nisbatan zichligi 1,03448 болса, шу газнинг мolar ва bitta molekulasini massasini hisoblang.

$$D(H_2) = \frac{M}{M(H_2)}$$

$$M_{\text{газ}} = D_{H_2} \cdot M_{(H_2)} = D_{H_2} \cdot 2 = 15 \cdot 2 = 30 \text{ g/mol}$$

$M_{\text{хаво}} = 29 \text{ g/mol}$ qabul qilinadi:

$$D_{(\text{хаво})} = \frac{M_{(\text{газ})}}{M(H_2)}$$

$$M_{\text{газ}} = D_{\text{хаво}} \cdot M_{\text{хаво}} = 1,03448 \cdot 29 = 30 \text{ g/mol}$$

Avogardo soniga asosan:

$6,02 \cdot 10^{23}$ ta molekula – 30 g болса

1 ta molekula - m g болади

$$m = \frac{1 \cdot 30}{6,02 \cdot 10^{23}} = 5 \cdot 10^{-23} \text{ g}$$

Mendeleyev – Klayperon tenglamasi:

Har qanday sharoitda “1 mol” gaz uchun: $PV = nRT$, bunda $n = m/M$ боллиб, qiymatlarni орнига qoysak:

$$PV = \frac{mRT}{M}$$

Bunda gazsimon moddaning molekular ogirligi:

$$M = \frac{mRT}{PV} \text{ kelib chiqadi.}$$

R – universal gaz doimiysi 8,314 J/mol · grad.

2.2. Karrali nisbatlar qonuni

Ingliz olimi D.Dalton 1804-yilda ikki elementdan hosil bolgan bir necha moddani tekshirib, yangi bir qonunni topdi.

CO	CO ₂
12:16	12:32
3: 4	3: 8

Masalan, uglerod II oksid bilan uglerod IV oksidini olaylik. Bu ikki birikmadagi 12 massa qism uglerodga ikki oksidda 16 massa qism kislород тоғыри келади. Uglerod IV oksidda 12 massa qism uglerodga 32 massa qism kislород тоғыри келади, яғни бу икки бирикмада углероднинг тенг миқдорлари тоғыри келадиган иккинчи элемент кислороднинг миқдори озаро бутун карралы сонлар нисбатидаги, 1:2 нисбати каби болади.

Agar ikki element birikib, bir necha birikma hosil qilsa, bu birikmalarda birinchi elementning teng miqdorlariga to‘g‘ri keladigan ikkinchi element miqdorlari o‘zaro butun sonlar nisbatida bo‘ladi.

Masalan: Uglerod vodorod bilan uch xil birikma hosil qilishida quyidagi nisbatda boʻladi:

CH_4	C_2H_4	C_2H_2
$12 : 4$	$24 : 4$	$24 : 2$
$3 : 1$	$6 : 1$	$12 : 1$
3	$:$	6

2.3. Ekvivalentlar qonuni

Tarkibning doimiylik qonunidan maʼlumki, har qanday kimyoviy birikmalarning tarkibiga kiruvchi elementlar oʻzaro aniq va doimiy ogʻirlik nisbatlarida boʼladi. Bu nisbatlar shu elementlarning ekvivalentlariga muvofiq keladi. Shunga koʼra moddalarning kimyoviy jihatdan teng kuchli miqdoriy nisbatlarini ifodalash uchun ekvivalent tushunchasi kiritilgan.

Moddalarning ekvivalentini ifodalashda nisbiy ekvivalent birlik sifatida 1 mol H-atomi ogirligi (1g) yoki 1 mol O-atomi ogirligining yarmi (8 g) qabul qilingan.

Moddaning ekvivalenti deb, uning 1g (ogirlik qism) vodorod yoki 8 g (o.q.) kislород bilan birikadigan (yoki орнини oladigan) ogirlik miqdoriga aytildi. Ekvivalent “gr/mol” birlikda олchanadi.

Ekvivalent teng qiymatli demakdir. Masalan: suvda bir ogırlik qism vodorodga sakkiz ogırlik qism kislorod toğacı keladi. Xuddi shuningdek bir ogırlik qism vodorodga 35,5 ogırlik qism Cl toğacı keladi. Demak vodorod kislorod va xlorning ekvivalentlari 1:8:35,5 ga tengdir.

Elementning bir massa qism vodorod yoki sakkiz massa qism kislorod bilan birika oladigan miqdori uning ekvivalenti massasi deb ataladi. Masalan:



Elementlar bir - biri bilan oʻzlarining ekvivalentlariga proporsional miqdorda birikadi va almashinadi.

Ekvivalent odatda «E» harfi bilan belgilanadi. Elementning atom massasini valentligiga boʻlish bilan ham shu elementning ekvivalentini hisoblab topish mumkin:

$$E = A/V; \quad E_H = 1/1 = 1 \text{ g/mol} \quad E_O = 16/2 = 8 \text{ g/mol}.$$

$$E_{Al} = 27/3 = 9 \text{ g/mol}; \quad E_{Ca} = 40/2 = 20 \text{ g/mol}.$$

Agar element oʻzgaruvchan valentlikka ega boʻlsa, $FeCl_2$ va $FeCl_3$ larda temirning ekvivalentligi mos ravishda $E_{Fe} = 56/2 = 28 \text{ g/mol}$ va $E_{Fe} = 56/3 = 18,66 \text{ g/mol}$ boʻladi.

Murakkab moddalarning ekvivalentini quyidagicha hisoblash mumkin:

Oksidlarning ekvivalentini oksidlarning molyar massasini elementning valentligini soniga koʻpaytmasiga boʻlish kerak. Oksidlarning ekvivalenti

$$E_{\text{oksid}} = \frac{M(\text{oksid})}{V_n}$$

$$E(Na_2O) = \frac{62}{2} = 31 \text{ g/mol}$$

$$E(Al_2O_3) = \frac{102}{2*3} = 17 \text{ g/mol}$$

Kislota ekvivalentini hisoblash uchun uning molekular massasini kislotaning negizligiga boʻlish kerak.

$$E(H_2SO_4) = \frac{98}{2} = 49 \text{ g/mol}$$

$$E(HCl) = \frac{36,5}{1} = 36,5 \text{ g/mol}$$

1) Asos ekvivalentini topish uchun uning molekular massasini shu asos tarkibidagi metallning valentligiga boʻlish kerak.

$$E(Ca(OH)_2) = \frac{74}{2} = 37 \text{ g/mol}$$

$$E(Al(OH)_3) = \frac{78}{3} = 26 \text{ g/mol}$$

2) Tuz ekvivalentini topish uchun uning molekular massasini tuz tarkibidagi metallning umumiyligiga boʻlish kerak.

$$E(AlCl_3) = \frac{133,5}{1*3} = 44,5 \text{ g/mol}$$

$$E(Fe_2(SO_4)_3) = \frac{400}{2 \cdot 3} = 66,66 \text{ g/mol}$$

Agar metallarning ogirligini m_{Me} , vodorodning ogirligini $m(H_2)$ va metallning ekvivalent massasini E_{Me} , vodorodning ekvivalent massasini $E m(H_2)$ bilan belgilasak, u holda:

$$\frac{m_{Me}}{E_{Me}} = \frac{m(H_2)}{E(H_2)}$$

Bo'ladi.

Vodorodning miqdori odatda hajm birliklarida o'lchangani uchun $\frac{mH_2}{E(H_2)}$ nisbatni unga teng qiymatli $\frac{V(H_2)}{EV(H_2)}$ nisbat bilan almashtirish mumkin, bu yerda $V(H_2)$ – normal sharoitda siqib chiqarilgan vodorodning hajmi (ml), $E_{V(H_2)}$ vodorodning n.sh. dagi 11200 ml. gat eng ekvivalent hajmi. Bundan:

$$\frac{m_{Me}}{E_{Me}} = \frac{V_{(H_2)}}{EV_{(H_2)}}$$

Yoki $E_{Me} = \frac{m_{Me} \cdot E_{V(H_2)}}{V(H_2)}$ bo'ladi.

Namunaviy masalalar yechish

1-masala. 0,158 g kislotani neytrallash uchun, 0,146 g oyuvchi natriy sarf bo'ladi. Kislotaning ekvivalent massasini aniqlang.

Berilgan:

$$m_{kis} = 0,158 \text{ g}$$

$$m_{NaOH} = 0,146 \text{ g}$$

$$E_{kis} - ?$$

Yechish: NaOH ning ekvivalentini aniqlaymiz:

$$E(NaOH) = \frac{40}{1} = 40 \text{ g/mol}$$

Ekvivalentlar qonuniga asosan, kislotaning ekvivalentini topamiz:

$$\frac{m(\text{kis})}{m(\text{NaOH})} = \frac{E(\text{kis})}{E(\text{NaOH})},$$

Yoki $E_{\text{kis}} = \frac{m(\text{kis}) * E(\text{NaOH})}{m(\text{NaOH})} = \frac{0,158 * 40}{0,146} = 43,2 \frac{\text{g}}{\text{mol}}$.

2-masala. 0,1 g metal kislota bilan reaksiyaga kirishganda normal sharoitda o'lchangan 92 ml vodorodni siqib chiqaradi. Shu metallning ekvivalent molyar massasini hisoblang.

Berilgan:

$$m_{\text{Me}} = 0,1 \text{ g}$$

$$V(H_2) = 92 \text{ ml}$$

$$E V(H_2) = 11200 \text{ ml}$$

$$E_{\text{Me}} - ?$$

Yechish:

$$\frac{m(\text{Me})}{m(H_2)} = \frac{E(\text{Me})}{E(H_2)}, \rightarrow$$

$$E_{\text{Me}} = \frac{m(\text{Me}) * E(H_2)}{V(H_2)} = \frac{0,1 * 11200}{92} = 12,13 \frac{\text{g}}{\text{mol}}$$

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

- Moddalar massasini saqlanish qonunini misollarda tushuntirib bering?
- Ekvivalentlar qonuniga ta'rif bering va misollar bilan tushuntirib bering?
- 4,56 g magniy yonganda 7,56 g magniy oksid hosil bo'ladi. Magniyning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (Javob: 12,16 g/mol)
- Mis xlorid tarkibida 47,26 % mis bor. Xloring ekvivalent molyar massasi 35,45 g/molga teng. Misning ekvivalent molyar massasini aniqlang. (Javob: 31,77 g/mol).
- Ekvivalent molyar massasi 12,16 g/molga teng bo'lgan magniyning 24,32 g bilan 98,08 g sulfat kislota reaksiyaga kirishadi. Sulfat kislotaning ekvivalent molar massasini aniqlang. (Javob: 49,04 g/mol)
- 0,0547 g metall kislotada eritilganda (n.sh.) 50,4 ml vodorod ajralib chiqqan. Metallning ekvivalent molyar massasini hisoblab toping. (Javob: 12,14 g/mol)
- 0,0517 g metall oksidi qizdirilganda 0,04 g kislorod ajralib chiqqan. Shu metallning ekvivalent molar massasini toping? (Javob: 100,3 g/mol) Hg.

8. 0,336 g kislotani neytrallash uchun 0,292 g oøyuvchi natriy sarf bołgan. Kislotaning ekvivalent molar massasini aniqlang. (Javob: 46 g /mol)
9. Oksid tarkibida 68,5 % xrom va 31,50 % kislород bor. Xromning valentligini toping. (Javob: 3)
10. Temir xlорид таркебида 34,43% темир bor. Xlоринг эквивалент молар массаси 35,45 g/mol га teng. Birikmadagi temirning ekvivalent molar massasini hisoblang. (Javob: 18,6 g /mol)

3-amaliy mashgulot

3. Termokimyo

3.1. Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti

Kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etuvchi moddalarning xossalari oзgaribgina qolmay,balki sistemaning energiya zaxirasi ham oзgaradi, buning natijasida issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi.

Issiqlik ajralishi bilan boradigan reaksiyalar ekzotermik , issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar endotermik reaksiyalar deyiladi.

Barcha jarayonlar sistema energiyasining oзgarishi bilan amalga oshadi. Kimyoviy reaksiya (neytrallanish, erish, moddalarning hosil bołishi yoki parchalanish va boshqalar) natijasida chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deb ataladi.

Biror jarayon davomida energiyaning bir turi yoqolsa, uning orniga ekvivalent miqdorda bir turi paydo boładi. Bu qonunning matemetik ifodasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta U = Q - P\Delta V$$

Bunda : ΔU – sistemaning ichki energiyasi,

Q – sistemaga berilgan issiqlik miqdori,

P - sistemaning bosimi.

ΔV – sistema hajmi oзgarishi, $P \cdot \Delta V = A$ bołganligi uchun, $\Delta U = Q - A$ koinishda ham yozish mumkin.

Har qanday jism małum energiya miqdoriga egadir. Jismda bołgan barcha energiya jismning umumiyligi energiyasi deyiladi. Jismning umumiyligi energiyasi kimyoviy termodinamikada sistemaning ichki energiyasi deyiladi. Sistemaning ichki energiyasi undagi molekulalarning oзaro tortilishi va itarilishi, ilgarilanma va aylanma harakat, molekula ichida va atomlar guruhchasi tebranish, atomlarda elektronlarning aylanish, atom yadrosida bołgan va hakozo energiyalar yigindisiga teng. Ichki energiya sistema holatini bildiradi. Sistemaning ichki

energiyasi moddalarning tabiatiga, ularning miqdoriga, bosim, harorat va hajmga bog'liq.

Kimyoviy sistemalardagi har qanday energetik o'zgarishlar energiyaning saqlanish qonuniga muvofiq bo'ladi. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan:

$$Q = \Delta U + A$$

Agar bosim doimiy ($P=\text{const}$) bolsa, hajm o'zgarishi hisobiga ish bajariladi va shunga ko'ra:

$$A = P(V_2 - V_1) = P \cdot \Delta V$$

Bo'ladi, bunda ΔV – sistema hajmining o'zgarishi $A = P \cdot \Delta V$ bo'lgani uchun tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$Q_p = \Delta U + P \cdot \Delta V$$

bunda: Q_p – reaksiyaning o'zgarmas bosimdag'i issiqlik effekti. Bundan:

$$\Delta U = U_2 - U_1 \text{ va } \Delta V = V_2 - V_1$$

Shunga asosan:


$$Q_p = (U_2 - U_1) + P(V_2 - V_1) = U_2 - U_1 + PV_2 - PV_1 = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1)$$

$$Q_p = (U_2 + PV_2) - (U_1 + PV_1)$$

Tenglamadagi $U + PV$ – kattalik sistemaning entalpiyasi (issiqlik tutumi) deyiladi va "H" harfi bilan belgilanadi. $U + PV = H$ bo'lgani uchun: $U_2 + PV_2 = H_2$ va $U_1 + PV_1 = H_1$. Bu holda tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$Q = H_2 - H_1 = \Delta H$$

Issiqlik yutish bilan sodir bo'ladigan endotermik reaksiyalar uchun ΔH musbat ishoraga ega bo'lib, $\Delta H > 0$ bo'ladi. Issiqlik chiqarish bilan sodir bo'ladigan ekzotermik reaksiyalarda esa ΔH manfij ishora bilan yoziladi va $\Delta H < 0$ bo'ladi. Masalan:




Demak, entalpiyaning o'zgarishi bosim doimiy bo'lganda sistemaga beriladigan yoki ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini bildiradigan termodinamik funksiyadir. Kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etuvchi moddalarning xossalari o'zgaribgina qolmay, balki sistemaning energiyasi o'zgarishi natijasida issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi.

Kimyoviy reaksiyalar natijasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori ko'rsatib yoziladigan kimyoviy tenglamalarga

termokimyoviy tenglamalar deyiladi. Termokimyoviy tenglamalar massa va energiyaning saqlanish qonunlariga rioya qilib tuziladi. Reaksiya natijasida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori joul yoki kjlarda ifodalanadi, ($1 \text{ kkal} = 4,18 \text{ kJ}$). Kimyoviy reaksiya vaqtida ajralib chiqqan yoki yutilgan issiqlik miqdori reaksiyaning issiqlik effekti deyiladi va ΔH_p bilan belgilanadi.

Oddiy moddalar (elementlar)dan 1mol murakkab modda hosil bo \square lishida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori moddalarning hosil bo \square lish issiqligi deyiladi. Hosil bo \square lish issiqligi $\Delta H_{\text{h.b.}}^{\theta}$ bilan belgilanadi. Hosil bo \square lish issiqligi har doim normal sharoitda (273°K da va $101,325 \text{ kP}$ bosimda) 1 mol modda uchun hisoblanadi, shuning uchun termokimyoviy tenglamalarda kasr ko \square effitsientlar ham qo \square yiladi, masalan:



Moddalarning hosil bo \square lish issiqliklari qiymati, ularning agregat holatiga ham bog \square liq bo \square ladi. Shunga ko \square ra, termokimyoviy tenglamalarda moddalarning agregat holatlari ham ko \square rsatib yoziladi. Hozirgi kunda standart sharoitda 8000 dan ortiq murakkab moddalarning hosil bo \square lish issiqliklari tajriba yo \square li bilan aniqlangan. Masalan, suvning bug \square ($\Delta H_{298}^{\theta} \text{H}_2\text{O}_{\text{bug}\square} = -241,84 \text{ kJ}$) hosil bo \square lish issiqligi suyuq holatdagi suvning hosil bo \square lish issiqligi esa $\Delta H_{298}^{\theta}(\text{H}_2\text{O}_s.) = - 285,4 \text{ kJ}$ ga teng. Shunga ko \square ra, hosil bo \square lish issiqliqlari qiymati ko \square rsatilganda $\Delta H_{298 \text{ h.b.}}$ bilan birga moddalarning agregat holatlarini ko \square rsatuvchi quyidagi belgilar ham yoziladi. Gaz holdagi modda - g bilan, suyuq holdagi modda - s bilan, qattiq holdagi modda - q bilan ifodalanadi.

Termodinamika qonuniga muvofiq reaksiya vaqtida issiqlik ajralib chiqsa, sistemaning issiqlik tutimi kamayganligi sababli, reaksiyaning issiqlik \square effekti manfij (-) ishora bilan, issiqlik yutilsa musbat (+) ishora bilan ko \square rsatiladi. Demak, reaksiyaning termodinamik issiqlik \square effekti ΔH termokimyoviy issiqlik \square effekti Q_p ning teskari ishora bilan olingan qiymatiga tengdir:

$$-\Delta H = Q_p \text{ ёки } \Delta U = -Q_p$$

Kimyoning termokimyo bo \square limi reaksiyaning issiqlik effektlari va ularning turli omillar bilan qanday bog \square langanligini o \square rganadi. Termokimyo ikkita asosiy qonun va ulardan kelib chiqadigan natijalardan iborat. Bu bo \square limning asosiy qonunlaridan biri Gess qonuni hisoblanadi. Energiyaning saqlanish qonuni, ya \square ni termodinamikaning birinchi qonuni


rus olimi G.I. Gess tajribalari asosida 1840 yilda tariflangan: "Komyoviy reaksiyalarning o'zgarmas hajmi va o'zgarmas bosimdagi issiqlik effekti sistemaning boshlang'ich va oxirgi agregat holatiga bog'liq bo'lib, jarayonning borish yo'lliga, qanday oraliq bosqichlar orqali o'tganligiga bog'liq emas. Termokimyoning amalda ko'p tatbiq qilinadigan bu muhim qonuni yana quyidagicha talqin qilinishi ham mumkin: "Reaksiyaning issiqlik effekti jarayonning qanday usulda olib borilishiga bog'liq emas, balki faqat reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning dastlabki va oxirgi holatiga bog'liq" Keltirilgan tariflarning isboti misolida CO_2 gazi C va O_2 dan ikki xil yo'll bilan bevosita, uglerod va kislorodning birikishi hamda CO hosil bo'lishi orqali olinishi mumkin. Bu yyerda Gess qonuniga muvofiq CO_2 hosil bo'lish issiklik effekti ΔH_1 barcha bosqichlarda kuzatiladigan issiqlik effektlarining yigindisiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\Delta H_1 = \Delta H_2 + \Delta H_3$$


Darhaqiqat, CO_2



Reaksiyasi yordamida bir bosqichda yoki



reaksiyalari orqali ikki bosqichda hosil qilinishi mumkin. (b) va (c) tenglamalar qo'shilsa, (a) tenglama kelib chiqadi. Demak, $\Delta H_1 = \Delta H_2 + \Delta H_3$ bo'ladi. Tajribada $\Delta H^\circ_1 = -393,3 \text{ kJ/mol}'$, $\Delta H^\circ_2 = -111,3 \text{ kJ/mol}'$ va $\Delta H^\circ_3 = -282,8 \text{ kJ/mol}$ ekanligi aniqlangan. Shular asosida CO_2 ning hosil bo'lish issiqligi $\Delta H_1 = -\Delta H_2 + \Delta H_3 = 111,3 + (-282,8) = -394,1 \text{ kJ/mol}$ ga tengligini topamiz. Yana bir misol: Gess qonunini tatbiq etib SO_3 va H_2O dan H_2SO_4 hosil bo'lish reaksiyasining issiqlik effektini hisoblaymiz:



Bunda: ΔH_1 , ΔH_2 , ΔH_3 - SO_3 , H_2O , H_2SO_4 larning hosil bo'lish issiqliklari. Agar (d) tenglamadan (b-c) ni olib tashlasak, (a) tenglama chiqadi, demak: $\Delta H = \Delta H_3 - \Delta H_1 + \Delta H_2$, ya'ni $\Delta H = +\sum \Delta H_{\text{h.b.}}$. Yuqorida keltirilganlardan komyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti mahsulotlar hosil bo'lish issiqliklari yigindisidan dastlabki moddalarning hosil

bo\u0422lish issiqliklari yig\u0422indisini ayirib tashlanganiga teng degan hulosa kelib chiqadi, ya\u0422ni:


$$\Delta H = \Sigma n H_{\text{Mah.}} - \Sigma p H_{\text{dast.modda}}$$

bunda: n, p - mahsulot va dastlabki moddalarning stehiometrik koeffisientlari.

Shunday qilib, Gess qonuni va undan kelib chiqadigan natijadan foydalanib, issiqlik effekti noma\u0422lum yoki o\u0422lchash qiyin bo\u0422lgan jarayonlarning issiqlik effektini topish mumkin. Gess qonunining natijalaridan biri ma\u0422lum bir murakkab moddaning oddiy moddalarga ajralish issiqligi qiymat jihatdan o\u0422sha moddaning elementlardan hosil bo\u0422lish issiqligiga teng bo\u0422lib, ishora jihatdan qarama-qarshi ekanligini tasdiqlovchi qonundir. Bu natijani Lavoaz'ye-Laplas qonuni ham deb yuritiladi. Shunga kura:

$$\Delta H_{\text{h.b.}} = -\Delta H_{\text{ajr.}}$$

Gess qonunidan kelib chiqadigan yana bir termodinamik hisoblash uchun muhim bo\u0422lgan natija quyidagicha izohlanadi: reaksiyaning issiqlik effektini topish uchun reaksiya natijasida hosil bo\u0422lgan moddalarning hosil bo\u0422lish issiqliklari yig\u0422indisidan, reaksiyaga kirishuvi moddalarning hosil bo\u0422lish issiqliklari yig\u0422indisini ayirish kerak. Masalan, ushbu umumiy reaksiya uchun:



reaksiyaning issiqlik effekti quyidagicha yoziladi:

$$\Delta H_p = (c\Delta H_c + d\Delta H_d) - (a\Delta H_A + \epsilon\Delta H_B)$$

bunda: $(c\Delta H_c + d\Delta H_d)$ - reaksiya mahsulotlarining hosil bo\u0422lish issiqliklari yig\u0422indisi;


$(a\Delta H_A + \epsilon\Delta H_B)$ - reaksiya uchun olingan moddalarning hosil bo\u0422lish issiqliklari yig\u0422indisi;

$a, \epsilon, c, \epsilon, d$ - moddalarning oldidagi stehiometrik koeffisientlar.

Shuni ham aytish kerakki, Gess qonuni "reaksiya issiqliklari yig\u0422indisining doimiy qonuni deb ham yuritiladi:

$$\Delta H_p = \Sigma \Delta H_{\text{Mah.}} - \Sigma \Delta H_{\text{dast.modda}}$$

Shunga ko\u0422ra, Gess qonuniga yana quyidagicha ta\u0422rif ham beriladi: *Ketma-ket boradigan bir qator reaksiyalar issiqlik effektlarining yig\u0422indisi dastlabki modda va mahsulotlarga ega bo\u0422lgan boshqa reaksiyalar qatorining issiqlik effektlari yig\u0422indisiga teng*. Buni yana bir misolda ko\u0422rajlik. Metanning yonish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Masala. Normal sharoitda 100 l metan yondirilganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?

Yechish. Gess qonuniga asosan reaksiyaning issiqlik effekti $\Delta H = (\Delta H_{\text{CO}_2} + 2\Delta H_{\text{H}_2\text{O}}) - (\Delta H_{\text{CH}_4} + 2\Delta H_{\text{O}_2})$ ga teng bo'ladi. Jadvaldan CH_4 , CO_2 va $\text{H}_2\text{O}(\text{s})$ larning hosil bo'lish issiqliklarining qiymatlarini topamiz:

$$\Delta H_{\text{CH}_4} = -74,85 \text{ kJ/mol}, \Delta H_{\text{CO}_2} = -393,51 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H_{\text{H}_2\text{O}(\text{c})} = -285,84 \text{ kJ/mol}.$$

Standart sharoitda oddiy moddalarning (elementlarning) hosil bo'lish issiqliklarining qiymati nolga teng deb qabul qilingan. Shunga kura, $\Delta H_{\text{O}_2} = 0$ bo'ladi. Jadvalda topilgan qiymatlarni tenglamaga qo'yib, reaksiyaning issiqlik effektini hisoblaymiz:


$$\Delta H_p = [-393,6 + 2 \cdot (-285,91)] - (-74,87) = -890,57 \text{ kJ.}$$

Reaksiya tenglamasiga asosan proporsiya tuzib, 100 l metan yonganda ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini hisoblab topamiz:

22,4 l CH_4 yonganda 890,57 kJ issiqlik chiqsa, 100 l CH_4 yonganda x kJ issiqlik chiqadi, bundan:

$$x = \frac{890,57 \cdot 100}{22,4} = 3976,2 \text{ kJ}$$


Reaksiya vaqtida issiqlik chiqishidan (yoki yutilishidan) tashqari sistema kengayishi uchun ish bajarilishi ham mumkin; masalan, sulfat kislotaga rux ta'sir ettirish reaksiyasida buni yaqqol ko'rish mumkin:



Gess qonuni va undan kelib chiqadigan natijalardan fojdalanib turli termokimyoviy hisoblar yuritish mumkin; termokimyoviy tenglamalar reaksiyalarning issiqlik effektlarini topishga imkon beribgina qolmay, balki ular asosida turli jarayonlar, jumladan: erish, kristallanish, nejtrallanish, gidratlanish, yonish, parchalanish va hokazo kabi amalda ko'p uchraydigan kimyoviy va fizik hodisalarning issiqlik effektlarini keltirib chiqarish mumkin. Quyida shu jarayonlar va ularning issiqlik effektlarini topish usullari bilan tanishib chiqamiz.

Namunaviy masalalar yechish

1-Masala. Metil spiritining yonish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Moddalarning hosil bo \square lish issiqliklari qiyatlaridan foydalanib, termokimyoviy reaksiyaning issiqlik effektini hisoblang.


$$\Delta H_{\text{CH}_3\text{OH}_{(s)}} = -238,5 \text{ kJ/mol},$$

$$\Delta H_{\text{CO}_{2(g)}} = -393,51 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H_{\text{H}_2\text{O}_{(s)}} = -285,84 \text{ kJ/mol}.$$

$$\begin{aligned}\Delta H_{k.r} &= [\Delta H_{\text{CO}_{2(g)}} + 2\Delta H_{\text{H}_2\text{O}_{(s)}}] - [\Delta H_{\text{CH}_3\text{OH}_{(s)}} + \frac{3}{2}\Delta H_{\text{O}_{2(s}}}] = \\ &= [-393,6 + 2 \cdot (-285,91)] - (-238,5) = -726,62 \text{ kJ.}\end{aligned}$$

2-Masala. 14 g temir kislorod bilan birikib, Fe_2O_3 hosil qilishda 102,09 kJ issiqlik ajralgan. Temir (III) oksidning hosil bo \square lish issiqligi ΔH ni toping?



Reaksiya tenglamasiga ko \square ra, 2 mol (Fe -112 g) temirdan 1 mol Fe_2O_3 hosil bolgani uchn bu reaksiya vaqtida ajralib chiqqan issiqlik miqdori ($+\Delta H_{\text{h.b.}}$) Fe_2O_3 ning hosil bo \square lish issiqligiga teng bo \square ladi:

$$14 \text{ g Fe} \cdots \cdots \cdots 102,09 \text{ kJ}$$

$$112 \text{ g Fe} \cdots \cdots \cdots \Delta H_{\text{h.b.}} \text{ kJ bundan}$$

$$\Delta H_{\text{h.b.}} = \frac{112 * 102,09}{14} = 816,72 \text{ kJ}$$

$$\text{J: } \Delta H_{\text{h.b.}} = 816,72 \text{ kJ}$$

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

- Termodinamik parametrlarni tushuntirib bering.
- Gess qonunini termokimyoviy reaksiyalar misolida tushuntirib bering.
- Asetilenning yonish reaksiyasi quyidagi tenlama bilan ifodalanadi:
 $\text{C}_2\text{H}_2 + 2\frac{1}{2}\text{O}_2 = 2\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$
 Normal sharoitda 1m^3 asetilen yondirilganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?
- Quyidagi reaksiyaning issiqlik effektini toping.
 $2\text{Mg} + \text{SiO}_2 = 2\text{MgO} + \text{Si}$
 $\Delta H(\text{SiO}_2) = -851,2 \text{ kJ/mol}$
 $\Delta H(\text{MgO}) = -611,7 \text{ kJ/mol}$
- 2,1 g temir oltingugurt bilan birikkanda 3,6 kj issiqlik ajralib chiqadi. Temir sulfidning hosil bo \square lish issiqligini hisoblang.
- Agar suv bug \square ining hosil bo \square lish issiqligi -241,9 kj bo \square lsa, normal sharoitda olingan 8,4 l qaldiroq gaz portlashidan qancha issiqlik ajralib chiqadi?

7. Quyidagi reaksiyaning issiqlik effektini hisoblab toping.


- a) $\text{CuS} + 2\text{O}_2 = \text{CuSO}_4$
- b) $3\text{CaO} + \text{P}_2\text{O}_5 = \text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$
- c) $\text{CO} + \text{H}_2\text{O}_{(g)} = \text{CO}_2 + \text{H}_2$
- d) $\text{Fe}_2\text{O}_3 + 3\text{CO} = 2\text{Fe} + 3\text{CO}_2$

8. 1 kg termit yondirilganda qancha issiqlik ajralib chiqadi?



Termit

9. Metil spirtining yonish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



4 kg spirt yondirilganda qancha issiqlik ajralib chiqishini hisoblab toping.

4- amaliy mashgۇlot

4.1. Atom tuzilishi va elementlar davriy sistemasi

Kimyoviy elementning xossalariini saqlaychi eng kichik zarracha atom deyiladi.

Moddaning xossalariini oлzida saqlaydigan, bir nechta atomdan tarkib topgan va mustaqil mavjud boлla oladigan eng kichik zarrachasi molekula deb ataladi.

Atom – protonlar va neytronlardan tarkib topgan musbat zaryadlangan yadrodan va uning atrofida harakatlanadigan manfiy zaryadli elektronlardan iborat. Koлpgina atomlar barqaror boлlib, juda uzoq muddatgacha oлz holatini saqlay oladi. Lekin ba'zi atomlar ma'lum vaqtadan keyin yadroda boлladigan oлzgarishlar tufayli boshqa atomlarga aylanib ketadi. Bunday atomlar radioaktiv atomlar deb ataladi. Atom elektroneutral boлlib, yadro atrofidagi elektronlarning umumiyligi soni yadroning musbat zaryadiga teng. Agar atomdan bir yoki bir necha elektron chiqarib yuborilsa, musbat zaryadli ion – kation, atom elektron biriktirib olsa, manfiy zaryadli ion – anion hosil boлladi. Atomdagi elektronlar soni va musbat zaryadlangan yadro zaryadi ayni atomning kimyoviy reaksiyadagi ahamiyatini tavsiflaydi.

Kimyoviy element – bir xil zaryadli yadroga ega boлlgan atomlar toлplamidir. Yadro zaryadi elementning kimyoviy elementlar davriy sistemasida joylashgan oлrnini belgilaydi; elementning davriy sistemadagi tartib raqami uning atom yadrosi zaryadiga teng.

Yuqorida koлrsatib oлtilganidek, kimyoviy elementlarning atomlari yadrodan va uning atrofida harakatlanadigan elektronlardan tarkib topgan. Oлtgan asrning oлrtalarida zarrachalar oqimi hosil qilingandan keyingina

elektronlarning xossasi oʻrganilgan. Bunda birinchi navbatda elektron zaryadining uning massasiga nisbati oʻlchangan. Bu miqdor elektronlar oqimining elektr va magnit maydon taʼsirida chetga chiqishini aniqlash orqali belgilangan. Bunday tajribani birinchi boʻlib, 1897- yili Tomson oʻzi tayyorlagan uskunada oʻtkazdi.

Atomda yadro mavjudligini birinchi boʻlib Rezerford (1909-1911-yillarda) aniqladi. Metall plastinkalar sirtiga α -zarrachalar yogʻdirib, ularning metalldan oʻtish yoʻllarini tekshirish natijasida ajoyib natijalar kuzatilgan. Yogʻdirilgan α -zarrachalarning koʻpchilik qismi metall plastinkadan toʻgʻri oʻtib ketaveradi, zarrachalarning juda oz qismi oʻzining dastlabki yoʻlidan maʼlum burchakka ogʻadi, lekin baʼzi zarrachalar (oʻn mingtadan bittasi) dastlabki yoʻlidan qarama-qarshi tomonga qaytadi. Bu hodisani faqat α -zarrachalarning musbat zaryadlangan yadro bilan toʻqnashishi natijasi deb tushuntirish mumkin.

Rezerford yuqorida tajriba natijalariga asoslanib, atom tuzilishining planetar nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga muvofiq, har qanday element atomi markazida juda kichik oʻrinni egallovchi yadro joylashadi, uning atrofida elektronlar xuddi planetalar quyosh atrofida harakat qilgani kabi oʻz orbitalari boʻylab aylanadi. Elektrodinamik nazariyadan maʼlumki, yadro atrofida aylanib turgan manfiy zaryadli elektron elektromagnit tebranish manbai hosil qiladi. Shu sababli elektron nurlanib, maʼlum miqdorda uzluksiz energiya chiqarib turadi. Natijada maʼlum vaqtidan keyin elektron energiyasi tugab, yadroga qulab tushishi kerak edi. Lekin tajriba buni tasdiqlamadi. Bor atomda statsionar orbitalar mavjudligini, bu orbitalarda harakatlanayotgan elektronlar oʻzidan energiya yoʻqotmasligini aniqladi.

Shunday qilib, Bor nazariyasi atomdagi elektronlar energiya darajalari haqidagi tasavvurni hosil qildi. Boshqacha qilib aytganda, Bor atomdagi har qaysi orbitalning oʻziga xos energiya darajasi boʼlishini izohlaydi. Energiya darajalari quyidagi tenglama asosida hisoblanadi:

$$E = -\frac{2\pi^2 \cdot m_e \cdot e^4}{h^2} \cdot \frac{1}{n^2}$$

Bu tenglamadagi n – **bosh kvant son** deb ataladi. Mana shu tenglamadan foydalanib, vodorod atomining ionlanish energiyasini hisoblab topish mumkin. Agar tenglamadagi oʻzgarmas kattaliklar oʻrniga ularning son qiymatlari qoʻyilsa, unda tenglama birmuncha soddalashadi:

$$E = \frac{13,6}{n^2} \cdot B$$

Demak, vodorod atomining birinchi orbita bo'ylab harakat qilayotgan elektronni atomdan butunlay chiqarib yuborish uchun: $E = \frac{13,6}{n^2} = 13,6 \text{ eV}$ energiya talab qilinadi. Ikkinci orbitaldagi elektronni chiqarib yuborish uchun esa $E = \frac{13,6}{2^2} = 3,4 \text{ eV}$ energiya sarf bo'ladi.

1916-1925 yillarda Zommerfeld va boshqa olimlar Bor nazariyasini rivojlantirib, ko'p elektronli **atomlarning tuzilishi nazariyasini** yaratdilar. Bu nazariyaga ko'ra atomlarda kvantlangan orbitallar doyra shaklidagina emas, balki ellips shaklida ham bo'lishi mumkinligi ko'rsatildi. Orbitallar faqat tekislikka joylashibgina qolmay, balki fazoda turli vaziyatda bo'lishi mumkin.

Atom yadrosi ikki elementar zarrachalar – proton va neytronlardan tuzilgan. Yadroning bunday tuzilishga ega ekanligini 1932-yili D.D. Ivanenko, E.N. Gapon va G.I. Geyzenberglar asoslab bergenlar. Protonning massasi taxminan 1 m.a.b ga, zaryadi +1 ga tengdir.

Neytron elektroneytral bo'lib, uning massasi taxminan proton massasiga tengdir. Proton massasi elektron massasidan 1836,12 marta, neytronning massasi esa 1838,65 marta kattadir. Yadroning zaryadi yadrodagи protonlar soni bilan aniqlanadi. Yadrodagи protonlar soni 2 va neytronlar soni N larning yigindisi taxminan massa soni A ga teng bo'ladi:

$$A=Z+N$$

Elementning yadro zaryadlari bir xil bo'lib, atom massalari bilan bir-biridan farq qiladigan atomlari shu elementning izotoplari deyiladi. Ma'lum elementning izotoplari bir-biridan atom yadrosidagi neytronlar soni bilan farqlanadi. Izotoplар деярли барча кимёвий элементларда мавjud. Изотоплар келиб чиқишining сабаби атом yadrosida neytronlar sonining har xil bo'lishidadir. Vodorod izotoplari tarkibi bu fikrni 1-jadvalda yaqqol isbotlaydi.

Vodorodning izotoplari.

4.1-jadval.

Izotop	Nomi	Z=N _p	N _p	N _n	m.u.b.
¹ ₁ H	Vodorod	1	1	0	1
² ₁ H	Deyteriy	1	1	1	2
³ ₁ H	Tritiy	1	1	2	3

shunday atomlar turi mavjudki, ular turli elementlarga tegishli bo'lsalarda, atom og'irliklari bir xil bo'ladi.

Yadro zaryadi turlicha boilib, atom ogirliklari bir xil bolgan elementlar atomlari **izobaralar** deyiladi. Masalan, kaliy elementining $^{39}_{20}\text{K}$ va $^{40}_{19}\text{K}$ izotoplari ham, kalsiy elementining $^{40}_{20}\text{Ca}$ va $^{42}_{20}\text{Ca}$ izotoplari mavjud boilib, ulardan $^{40}_{19}\text{K}$ va $^{40}_{20}\text{Ca}$ atomlari ozaro izobarlardir. Bu atomlarda nuklonlar soni ozaro har xil boolsada, umumiy soni (yigindisi) bir xil:

Atomlarning izobaralari.

4.2-jadval.

Izotoplар	Nomi	$Z=N_p$	N_p	N_n	m.u.b.
$^{40}_{19}\text{K}$	Kaliy	19	19	21	40
$^{40}_{20}\text{Ca}$	Kalsiy	20	20	20	40

Agar elektron harakati r – radius ichida sodir boladi deb hisoblasak, u holda noaniq harakati r ga teng deb qabul qilinishi mumkin. Bu yyerda yuqoridagi tenglamaga asosan elektron minimal noaniqligi ΔP nm elektron impulsi P ga teng bolgan holatda h/r ga baravar deb olishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, impuls qiymati noaniqlik qiymatidan kichik bolishi mumkin emas. Shuning uchun impulsning minimal qiymati $P = \frac{h}{r}$ boladi.

Lekin kvant mexanikasi elektronning tinch holatda emas, balki r_0 bolgan chegaradagi energiyasi minimal qiymatga ega ekanligini korsatadi. Bunday holatda esa bu chegara ichida elektronning aniq holatini tawsiflash mumkin emas. Shuning uchun $r < r_0$ bolganda elektron energiyasi ortib boradi va tenglamalarni tenglashtirib, r_0 ning qiymati birinchi orbita radiusi qiymatiga teng ekanligini korishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan xulosalar taxminiydir, chunki elektronning atomidagi harakatini aniq sfera boylab chegaralab bolmaydi. Shunga qaramasdan bu xulosalar, elektron nima uchun yadroga qulab tushmasligi va uning energiyasi minimal qiymatga ega ekanligini izohlab berishda katta ahamiyatga ega. Vodorod atomi uchun Shredinger tenglamasi yechilganda ham xuddi shunday natijalar olinishi mumkin. Lekin buning uchun murakkab elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish talab etiladi.

Bor-Zommerfeldlarning elektron ma'lum bir orbita boylab harakatlanishi nazariyalari kvant-mexanik nazariya bilan almashtirildi. Bu nazariyaga muvofiq elektron atom hajmining har qaysi nuqtasida bolishi mumkin-u, lekin uning yadro atrofidagi fazoning hamma joyida bolish ehtimolligi birdek bolmaydi. Demak, orbita elektron harakatlanadigan oddiy yoll emas, balki u elektronni bolib turish ehtimolligi eng yuqori bolgan fazoviy ornidir. Yadro atrofidagi fazoda elektronning orbita

bo'ylab harakathlanib turish ehtimolligini aks ettiradigan manzarani quyuq va siyrak sohalarga ega bo'lgan elektron bulut deb tasavvur qilsak, uning shakli orbital nomli maxsus φ^2 funksiyalar bilan tasvirlanadi. Endilikda orbital atamasi orbita atamasi o'rniда ishlataladi va atomda elektronning harakati o'ziga xos ma'lum toqlin funksiya - bilan belgilanadi.

Atomdagi elektronlarning holatini quyidagicha belgilash qabul qilingan: bosh kvant soni n butun sonlar, ya'ni $p=1, 2, 3, 4, \dots$ bilan orbital kvant soni l – esa butun sonlar $l=0, 1, 2, 3, 4, 5, \dots$ va harflar s, p, d, f, g, h, \dots bilan belgilanadi.

Birinchi tortta harf atomlarning spektr seriyalariga mos keladi, ikkita oxirgi g va h harfi alfavitda f dan keyin keladi. Demak, $1s$ deganda, $n=1$ va $l=0$ bo'lgandagi elektronni, $2p$ deganda $n=2$, $l=1$ bo'lgan holatdagi elektronlar tushuniladi. Atomdagi elektronlar soni esa harflar darajasida ko'rsatiladi. Masalan: $2s^2$ ("ikki ES ikki" deb o'qiladi) atomda $n=2$ va $l=0$ bo'lganda 23 pog'onachada 2 ta elektron borligini ko'rsatadi .

Turli holatdagi elektronlarning kvant sonlari 4.3.-jadval.

p	1		2		3																	
l	0	0	1		0	1																
m	0	0	0	± 1	0	0	± 1	0	± 1	± 2												
t_s	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2	+1/2					
	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2	-1/2					
Orbitallar belgisi	1s	2s	2p _z	2p _x	2p _y	3s	2p _z	2p _x	2p _y	2p _z	3d _{xz}	3d _{yz}	$3d_{x^2-y^2}$	$3d_{xy}$								
l - ma'lum qiyamatga ega bo'lgandagi maksimal elektronlar soni	2	2	6			2	6											10				
n - ma'lum qiyamatga ega bo'lgandagi maksimal elektronlar soni	2	8				18																

Kvant sonlar n , l va m_e esa quyidagi qiyatlarga ega bo'ladi:

$$n = 1, 2, 3, 4, 5, \dots, \infty$$

$$l = 0, +1, +2, +3, +4, \dots, (n - 1)$$


$$m = 0, \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \dots, \pm l$$

$$m_s = \pm 1 / 2 n^2$$

Ushbu kvant sonlar faqat vodorod atomidagi elektron harakatinigina emas, balki boshqa har qanday atomlardagi elektronlar harakatini ham ifodalaydi.

Bundan tashqari trigonometrik burchaklarning funksiyalari yozishni qisqartirish maqsadida r masofada, x, y va z koordinatalarda aniqlangan. Xuddi shunga o'xshash to'lqin funksiyalari bilan birga elektronli ionlarda (Ne^+ , Li^{+1} va boshqalar) elektronlar harakatini ifodalashi mumkin.

Elektron bulutlari shakli ma'lum darajada to'lqin funksiyalarining burchaklarini aniqlaydi. Ularning shaklini tasvirlash uchun qutb koordinatalaridan foydalaniladi. Bunday shakllar ba'zi elektron holatlari uchun 1-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, ularni yuqorida keltirilgan jadvaldagagi formulalar bilan taqqoslash mumkin.



4.1.-rasm. Atomda turli holatdagi elektron bulutlarining shakli (qutblangan holati).

Orbital shakllar kimyoviy bog'lanishni tushuntirishda katta rol o'yynaydi. Keyinchalik shularga o'xshash orbital shakllardan ko'p foydalanamiz.

4.2. Atom elektronlarining kvant soni

Kvant sonlari faqatgina vodorod atomidagi elektronning emas, balki har qanday elektronlar harakatining fazoviy yo'nalishini ham ifodalaydi. Kvant sonlari elementlarning xossalari va kimyoviy

bog'lanishning tabiatini o'rghanishda katta rol o'yynaydi. Shu sababli, ularning ma'nosini chuqur anglab olish, zarur bo'lganda ularni nazariy va amali maqsadlarda qo'llashni bilish talab etiladi.


Hozirgi vaqtida elektron holatni to'rtta kvant son bilan belgilash qabul qilingan bo'lib bular; bosh kvant soni "n", orbital kvant soni " l ", magnit kvant soni "m", spin kvant soni " m_s " lardir.

Kvant sonlari n, l, m, va m_s elektron bulutlarning geometrik shakllari bir-biridan farq qilishini hamda elektron harakatining fizik ma'nosini anglatadi.

Bosh kvant soni "n" qiymati 1 dan ∞ gacha bo'lgan butun sonlarga tent bo'ladi. Bosh kvant son atomidagi elektron qavatini, yoki ma'lum energetik pog'ona yuzasini tavsiflaydi.

Qavatlarda elektron bulutlarining taqsimlanishi ma'lum umumiyligida qonuniyatga asoslangan. Mikrozarrachalarning harakatini oddiy to'lqin harakati tenglamasi orqali ifodalash mumkin. Har qanday to'lqinda tebranish soni nolga teng bo'lgan nuqta bo'ladi. Agar tebranish jarayoni uch xil yonalishda sodir bo'lsa, ular birgalikda hosil qilgan nuqtalar qavat yuzasini tashkil qiladi. Atomlarda qavat yuzalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi: 1) atom (yoki yadro) markazidan o'tadigan qavatning yuza sferasi yadro markaziga mos keladi; 2) atom (yadro) markazidan o'tmaydigan qavatning yuza sferasi esa tekis yoki konussimon shaklga ega bo'ladi. Qavatlarning sferik yuzali bo'lishi to'lqin funksiyaning radial qismini ko'rsatadi, ya'ni yadrodan malum masofada $\varphi=0$ bo'ladi.

Orbital kvant soni " l " elektronning to'lqin funksiyasi hosil qilgan qavat yuzalarining yadrodan o'tish sonini belgilaydi. Yuqorida qayd etilganidek qavat yuzalaridan bittasi doimo yadrodan cheksiz masofada joylashgan deb hisoblanadi, ya'ni 1 ning qiymati 0 dan n-1 gacha o'zgaradi. 1-rasmda atom markazidan o'tuvchi turli holatlardagi elektronlar qavat yuzalarining joylanishi ko'rsatilgan.



4.2-rasm. Atom markazidan oʻtuvchi turli holatdagi elektronlar qavati yuzalarining joylanishishi.

Shunday qilib " l " orbitallar ($l=0$) sferik, r -orbitallar gantel, d -orbitallar toʻrt parrakli shaklga ega boʻladi.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek, kvant mexanikasi tushunchasiga asosan elektron atom yadrodan har qanday masofada boʻla olishi mumkin, lekin atomning turli nuqtalarida boʻla olish ehtimoli har xil boʻladi.

Impulsning orbital momenti proeksiyasini quyidagi nisbat bilan aniqlash mumkin:

$$M_z = h \cdot m$$

Bu kvant soni m *magnit kvant soni* deb ataladi. Chunki elektron orbitalning magnit proeksiyasi shu songa bogʻliq. Shredinger tenglamasi echimida koʻrsatilgan n , l va m kvant sonlari vodorod atomidagi elektronning harakat trayektoriyasini toʻliq belgilab bera olmaydi. Atom spektrlarini kuzatish natijasida bu xarakteristikalaridan tashqari toʻrtinchi kvant sonini ham kiritish kerakligi maʼlum boʻlib qoldi. Chunki tajriba natijalariga asosan elektron toʻrtinchi darajali ozodlikka ega, yaʼni oddiy soʻz bilan aytganda, u oʻz oʻqi atrofida aylanadi. Elektronlarning harakati "spin" bilan belgilanadi. *Spin kvant soni elektron* oʻzining moment impulsiga ega ekanligini bildiradi. Bu tushuncha elektronning zaryadi va massasi kabi uning asosiy xossasi hisoblanadi. Tajriba natijalarini elektron momentining proyeksiyasi faqat ikkita qiymatga $+\frac{1}{2}n$ va $-\frac{1}{2}n$ teng ekanligini koʻrsatdi. Bu yyerda musbat va manfiy ishoralar elektronning turli yoʻnalishi boʻyicha aylanishini bildiradi. Ravshanki, spin kvant son

m_s – faqat ikkita qiymatga $+\frac{1}{2}$ va $-\frac{1}{2}$ ega boʻladi. Spin kvant sonlarini toʻlqin funksiyasi orqali belgilash uchun unga koʻpaytirgichlar kiritiladi.

Demak, toʻrttala kvant sonlari n , l , m , m_s atomdagi elektronning harakatini toʻliq tavsiflaydi. Elektronning harakatini bulardan boshqa birliklarda ifodalab boʻlmaydi. Bosh kvant soni n bir xil qiymatga, l , m va m_s turli qiymatga ega boʻlgan holatdagi elektronlarga tashqi maydon taʼsiri turlicha boʻladi. Natijada bunday holatdagi elektronlarning energiyasi har xil qiymatga ega boʻlib qoladi. Buni magnit yoki elektr maydonlari taʼsirida spektr chiziqlarining nurlanishi bilan tushuntirish mumkin.

Koʻp elektronli atomlar. Vodorod atomidan boshqa koʻp elektron atomlardagi har qaysi elektronning holatini ham toʻrt kvant son p , l , t va t_s bilan belgilash mumkin. Bu sonlar vodorod atomidagi kvant sonlar qiymatlariiga teng deb qabul qilinadi.


Koʻp elektronli atomlarda elektron faqatgina yadro maydonidagina emas, balki boshqa elektronlararo maydonlarda ham harakatlanadi, yaʼni p bir xil qiymatga, l esa turli qiymatlarga ega boʻlganligi sababli elektronlarning energiyalari ham turli qiymatga ega boʻlib qoladi. Shuning uchun koʻp elektronli atomlarda elektron energiyasi ikki kvant soni n va l bilan belgilanadi. Bunday holatda elektronning energiyasi n va l ortib borishi bilan koʻpayadi. Atomdagi elektronlar soni ortib borishidagi energiyaning oʻzgarishi l ortib borishidagi energiyaga qaraganda birmuncha sezilarli boʻladi. Natriy atomidan chiqarib yuborilgan elektronning kvant sonlari $n=3$, $l=0$ (3s)ga teng boʻlgan qavatdagi va $n=3$, $l=1$ (3s)ga teng boʻlgan qavatdagi energiyalarning ayirmasi 2,1 eV ga teng. Bu miqdor, kvant sonlari $n=3$, $l=0$ (3s) va $g=4$, $l=0$ (4s); ga teng boʻlgan qavatlardagi energiyalar ayirmasi miqdori (3,1 eV) ga yaqinlashadi. Elektronlar soni ortib borgan sari atomlarda 1 oʻzgarishi bilan energiya sezilarli ravishda oʻzgaradi. Bu atomlar tuzilishining turlicha boʼlishi bilan tushuntiriladi. Umuman, koʻp elektronli atomlarda energetik qavatlarning oʻzgarishini quyidagicha yozish mumkin va qavatlari energiyalari jihatidan bir-biridan kam farq qilib n , r qavatlariga nisbatan kichkina qiymatga ega boʻladi.

Shunday qilib, energiyaning ortib borishi quyidagi energetik qavatlar tartibida tavsiflanadi:

$1s < 2s < 2p < 3s < 3p < 4s \approx 3d < 4p < 5s \approx 4d < 5p < 6s \approx 4f \approx 5d < 6p < 7s < 5f < 6d < 7p$

4.3-rasmda koʻp elektronli atomlarda energetik qavatlarning nisbiy joylashish sxemasi koʻrsatilgan. Keltirilgan sxema taxminiy boʻlib, bir

atomdan ikkinchi atomga oʻtgan sari energetik qavatlarning joylanishi sezilarli oʻzgarib boradi. Koʻp elektronli atomlarda elektronlarning holatlari Pauli prinsipi asosidagi kvant-mexanik qonunga javob beradi. Ushbu prinsipga muvofiq atom va molekulyar sistemada toʻrttala kvant sonlar bir-biriga teng boʻlgan ikkita elektron boʻla olmaydi. Pauli prinsipi atomda bosh kvant soni n maʼlum qiymatga ega boʻlgan elektronlar sonini cheklab qoʻyadi.



4.3-rasm. Koʻp elektronli atomlarda energetik pogʼonalarning joylashishi.

Agar $n=1$ boʻlsa, u holda $I=0$ va $m=0$ boʻladi. Shuning uchun $n=1$ boʻlganda elektronlar bir-biridan spin kvant sonlari bilan farq qiladi. Shunday qilib, atomda bosh kvant soni $n=1$ boʻlgan ikki elektron boʼlishi mumkin.

	n	1	m	m_s
1—elektron	1	0	0	$+\frac{1}{2}$
2—elektron	1	0	0	$-\frac{1}{2}$

Shunga oʻxshash $n=2$ boʻlgan holatda kvant sonlari bir-biriga oʻxshash boʻlmagan 8 elektronning borligini 4.4.-jadvalda kuzatishimiz mumkin:


Kvant sonlarini taqqoslash.

4.4- jadval.

n	l	m	m_s	n	l	m	m_s
2	0	0	$+1/2$	2	1	0	$+1/2$
2	0	0	$-1/2$	2	1	0	$-1/2$
2	1	+1	$+1/2$	2	1	+1	$+1/2$
2	1	-1	$-1/2$	2	1	-1	$-1/2$

Xuddi shu usul bilan bosh kvant soni $n=2$ ga teng bo\u0438lganda elektronlarning maksimal soni ko\u043fpi bilan 18 ga, $n=4$ bo\u0438lganda 32 ga teng ekanligini hisoblab topish mumkin. Umuman, bosh kvant soni n qiymatga ega bo\u0438lsa, elektronlarning eng ko\u043f p soni $2n^2$ ga teng bo\u0438ladi. Bosh kvant soni p ning qiymati elektronlarning yadroqacha bo\u0438lgan o\u0431rtacha masofasini belgilaydi, shu sababli bir xil qiymatga ega bo\u0438lgan elektronlar yig\u043bindisi elektron qavat deb ataladi (elektron qavatlarni belgilash yuqorida ko\u043orsatib o\u0438tilgan edi).

n qavatda orbital kvant soni, l ning qiymatlari 0 dan ($n-1$) ga qadar bo\u0438lishi mumkin. Yuqorida ko\u043orsatilganidek, har qaysi qavatdagi maksimal elektronlar soni $2n^2$ ga teng bo\u0438lgani uchun, ya'ni birinchi qavatda ko\u043fpi bilan 2 ta, ikkinchi qavatda 8 ta va hokazo elektron bo\u0438ladi. Shunga muvofiq, har qaysi qavatlardagi elektronlarning eng ko\u043f p soni esa $2(2l+1)$ ga teng bo\u0438ladi. Agar s qavatchada bir-biriga qarama-qarshi spinga ega bo\u0438lgan 2 ta elektron bo\u0438lishi mumkin bo\u0438lsa, r qavatchada elektronlar soni oltita bo\u0438ladi. U holda elektronlar spinlari qanday taqsimlanadi degan savol tug\u043biladi. Masalan, azot atomining elektron konfiguratsiyasi $1s^2 2s^2 2p^3$ formulaga ega (ya'ni birinchi qavatda 2 ta ikkinchi qavatda 5 ta) bo\u0438ladi. Bu formulaga asosan elektronlarni ikki xil variantda joylashtirish mumkin:



Har qaysi yachevkalar ma'lum orbitalga mos keladi, ya'ni har qaysi orbitalda bir-biriga qarama-qarshi spinga ega bo\u0438lgan ikki elektron joylashishi mumkin. Birinchi sxemada p elektronlar turli m_s qiymatga, ikkinchi sxemada esa ikkita p elektronorda m_s qiymati bir xil. Shunga o\u0431xshash ko\u0438pgina elementlarda elektronlarning joylanishlar soni 5 ga teng bo\u0438lgani uchun, d qavatchada 10 ta, f qavatchada yacheyska soni 7 ga teng bo\u0438lgani uchun f qavatchada 14 ta elektron joylashishi mumkin.

Kvant-mexanika va spektr tahlil natijalari shuni ko\u043orsatadiki, kam energetik holatga ega bo\u0438lgan atomlarda kvant yachevkalarining elektronlar bilan to\u0431lib borishi quyidagicha sodir bo\u0438ladi: kvant yacheykalariga elektronlar taqsimlanishida birinchi navbatda ular magnit kvant m_s soni turli qiymatlarga ega bo\u0438lgan elektronlar bilan to\u0431ladi, keyinchalik elektronlar ko\u0438payib borishi natijasida yacheykalarida spin qarama-qarshi bo\u0438lgan elektronlar joylashadi. Energetik yachevkalarining elektronlar bilan to\u0431lishida ularning spin kvant sonlari yig\u043bindisi eng

yuqori qiymatga ega bolishiga intiladi. Bu *Gund qoidasi* deb ataladi. yacheylarning elektronlar bilan tolib borishi elementlarning fizik va kimyoviy xossalari davriy ozgarishini vujudga keltiradi.

Agar atomlarga tashqaridan hech qanday ta'sir bo'lmasa, u holda elektronlar eng kam energiyaga ega bo'lgan holatda bo'ladi. Bunday holat atomning *normal holati* deb ataladi. Agar atomga tashqaridan biror bir turdag'i energiya ta'sir ettirilsa (ya'ni atomlar o'zaro to'qnashsa, kvant yorug'lik nuri yuttirilsa, issiqlik energiyasi berilsa, elektron yoki neytronlar bilan bombardimon qilinsa va hokazo) bir yoki bir necha elektronlar energiyasi yuqori bo'lgan qavatchalarga o'tadi. Atomning bunday holatini *qozg'algan holat* deb ataladi.

Atomlar qo \square zg \square algan holatda juda qisqa vaqt (10^{-5} - 10^{-8} sek) davomida mavjud bo \square la oladi. Sunga elektronlar energiyasi kam bo \square lgan qavatchalarni egallaydi. Natijada elektronlarning bir yacheykadan ikkinchi yacheykaga o \square tishi bosqich bilan sodir bo \square ladi. Energiyasi katta bo \square lgan qavatdan energiyasi kichik bo \square lgan qavatga elektron o \square tishi natijasida atom o \square zidan kvant nur chiqaradi. Bu nur Plank tenglamasiga muvofiq quyidagicha aniqlanadi:

$$E_2 - E_1 = h\nu$$

Ushbu tenglama nurning spektr chiziqlari chastotasini ifodalaydi. Shunday qilib, har qaysi spektr chiziqlarining hosil boʻlishi elektronning bir energetik qavatchadan ikkinchi energetik qavatchaga oʻtishiga mos keladi. Binobarin, elektronlarning katta qavatchadan kichik qavatchaga oʻtishi natijasida atomlarning normal holatga aylanishi elementning spektrlari bilan tavsiflanadi.

Elektronning ichki qavatdan tashqi qavatga o'tishi natijasida ko'rinaradigan nuring toqlarin uzunligidan kichik toqlarin uzunlikka ega bolgan rentgen nurlari hosil boladi. Bu ichki qavatlardagi elektronlarning yadro bilan mustahkam boglanganligidan darak beradi (odatda atomlarning elektron tuzilishi deganda ularning oddiy holati tushuniladi).

Atomlarda tashqi elektronlarning ko'chishida energiya kam o'zgaradi va bu ko'zga ko'rinishdigan ultrabinafsha spektrlarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Tinimsiz izlanishlar natijasida hozirgi vaqtda ko'pgina elementlarning elektron tuzilishlari aniqlangan. Elementlarning atomlari spektrlarini ma'lum bir sistemaga solishda D.I. Mendelyevning kimyoviy elementlar davriy qonuni muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni aytish mumkin:

- atomdagи har bir elektron 4 xil kvant soni bilan tavsiflanadi.
- kvant sonlari har bir elektronning atomda joylashgan орни, tartibi, energiyasi, harakat shakli hamda holatini aniq korsatib beradigan asosiy kattalikdir.

Kvant sonlarining taqsimlanishi.

4.5- jadval.

Bosh kvant soni	Orbita kvant soni	Magnit kvant soni	Spin kvant soni	Pogонлар va улардаги elektronlar
1	0	0	$\pm 1/2$	1s
2	0	0	$\pm 1/2$	2s
	1	+1 0 -1	$\pm 1/2$ $+1/2$ $\pm 1/2$	2p
	0	0	$\pm 1/2$	3s
3	1	+1 0 -1	$\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$	3p
	2	-2 -1 0 1 2	$\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$	3d
		0	$\pm 1/2$	4s
		1	$\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$	4p
		2	$\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$ $\pm 1/2$	4d

		-3	$\pm 1/2$	
		-2	$\pm 1/2$	
		-1	$\pm 1/2$	
	3	0	$\pm 1/2$	4f
		1	$\pm 1/2$	
		2	$\pm 1/2$	
		3	$\pm 1/2$	

4.3. Elektron formulalar

Vodorod elementidan boshlab elementlarning tartib raqamlari ortib borishi bilan atomlardagi elektronlar soni ham ortib boradi. Koop elektronli atomlarda elektron qavatlarining elektronlar bilan tolib borishi elektronlarning energiyalari, kvant sonlari qiymatiga, Pauli, Gund qoidalariga amal qiladi.

Pauli 1925- yilda koop elektronli atomlarni organib, elektronlarning kvant sonlari tushunchasi va ularning qiymatlari asosida elektronlar joylashuvi tolgorisida quyidagi qoidani yaratdi: *Pauli prinsipi*: atomda torttala kvant soni bir xil bolgan ikki yoki undan ortiq elektronning bolishi mumkin emas.

Gund qoidasi. Koop elektronli atomlarda elektronlar soni ortib borishi bilan ular joylashishi mumkin bolgan orbita (yacheyka) lar ham ortib boradi. Bu yacheykalarda elektronlar Gund qoidasiga amal qilgan holda joylashadi. Koop elektronli atomlarda elektronlar yacheykalarga joylashayotganda oz spinlarini parallel yonaltirib, spinlar yigindisi ($\sum m_s \rightarrow \text{max}$) maksimal bolishiga intiladi.

Bu qoidaga asosan, yacheykaga kelib joylashadigan har bir elektron bittadan bir xil energiyali yacheykani band qiladi. Z=5(B) dan Z=7(N) gacha bolgan element atomlari 2p-orbitalarining elektronlar bilan tolib borishi bunga yaqqol misol boyla oladi.

Atom orbitalarining elektronlar bilan tolib borishi «eng kam energiyali holat» tartibiga amal qiladi. Bunga kopra avval eng kam energiyali (yadroga yaqin) orbita, keyin energiyasi kooproqlari tolib boradi.

Bu tartibni ozida toliq, har tomonlama aks ettirgan qoida Klechkovskiy qoidasidir.

Klechkovskiy qoidasi atom elektron orbitalarining energetik holati ($n+l$) yigindisining qiymatiga bogliq qoidadir.

1- qoida. Atom orbitalarini elektronlar bilan tolib borishida avval $(n+l)$ yigindisi ortib borish tartibi orqali toldiriladi. Avval $(n+l)$ yigindisining eng kichik qiymatiga mos keladigan orbita, keyin bu yigindining katta qiymatlariga mos keluvchi orbitalar tolib ladi. Shu qoidaga asoslanib;

$$(n+l) = 1+0 = 1; \quad (n+l)=2+0=2; \quad (n+l)=2+1=3; \\ (n+l)= 1(1s); \quad (n+l)=2 (2s); \quad (n+l)= 3 (2p);$$

2- qoida. Agar bir necha orbita uchun $(n+l)$ yigindining qiymati bir xil bolsa, u holda bosh kvant soni n ga qaraladi, u ham ortib borish tartibi orqali toldiriladi. Shu qoidaga asoslanib:

$$(n+l)= 2+1=3 \text{ va } n+l=3+0=3$$

Ikkala holat uchun ham $n+l = 3$. Bu elektron orbitalardan $n=2$, $n=1$ bolgan (2p) orbita avval elektron bilan tolib ladi, keyin $n=3$, $l=0$ bolgan (3s) orbita elektron bilan tolib ladi. Chunki $n+l = 2+1$ orbitaning energiyasi $n+l = 3+0=3$ orbitaning energiyasidan kichik, ya ni $E_{2p} < E_{3s}$ yoki $2p < 3s$ tartibga amal qilinadi.

Klechkovskiyning I a II qoidalariiga asoslanib atom orbitalarning elektronlar bilan tolib borishi quyidagicha

$n+l$	$n+l$
1s = 1+0=1	5p = 5+1=6
2s = 2+0=2	6s = 6+1=7
2p = 2+1=3	4f = 4+3=7
3s = 3+0=3	5d = 5+2=7
3p = 3+1=4	6p = 6+0=6
4s = 4+0=4	7s = 7+0=7
3d = 3+2=5	5f = 5+3=8
4p = 4+1=5	6d = 6+2=8
5s = 5+0=5	7p = 7+1=8
4d = 4+2=6	

4.4.Ionlanish energiyasi va elektronga moyillik

Kimyoviy jarayonlarda atomdagi elektronlarning orbitallarda qay darajada mustahkam joylashganligi katta ahamiyatga ega. Buning uchun, atomlarning ionlanish energiyasi tushunchasidan foydalaniladi.

Normal holatda turgan atomlarda bitta elektronning ajralib chiqishi uchun sarf qilingan energiya miqdori *ionlanish energiyasi* deb ataladi. Bu tushuncha molekulalarga ham taalluqlidir. Ionlanish energiyasi miqdorini

aniqlashda ham atomdagi elektronlarning energetik qavatlarini aniqlashdagi kabi spektral ma'lumotlardan foydalilaniladi.

Qisqa toqlqinli spektral seriyasi asosiy holatdagi atomlardan elektronlar chiqib ketganda ajralib chiqqan energiyaga mos keladi, ya'ni atomdan elektronni chiqarib yuborish uchun shuncha energiya sarflash kerak bo'ladi.

Ko'p elektronli atomlarda ionlanish energiyasi ham bir necha E_1 , E_2 , E_3 , ... qiymatlarga ega bo'ladi. Bu energiyalar birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo elektronlarning uzilish energiyasiga mos keladi. Hamma holatlarda va har doim

$E_1 < E_2 < E_3 < \dots$ bo'ladi. Chunki uzilib chiqayotgan elektronlar soni qancha ko'p bo'lsa, ionning musbat zaryadi ham shuncha ortadi, bu esa o'z navbatida shuncha elektronni o'ziga tortadi.

Quyidagi jadvalda ba'zi atomlarning ionlanish energiyalari qiymati keltirilgan.


Ba'zi elementlarning ionlanish energiyasi 4.6-jadval.

Atom	Ionlanish energiyasi, eV				
	1	2	3	4	5
H	13,595				
He	24,581	54,403			
Li	5,390	75,619	122,419		
Be	9,320	18,206	153,850	217,657	
B	8,296	25,149	37,920	259,298	340,127
C	11,256	24,376	47,871	64,48	392,00
N	14,53	25,593	47,426	77,450	97,863
O	13,614	35,146	54,934	77,394	113,873
F	17,418	34,98	62,646	87,23	114,214
Ne	21,559	41,07	63,5	97,16	126,4
Na	5,138	47,29	71,65	98,88	138,60
Mg	7,644	15,031	80,12	109,29	141,23
Al	5,984	18,823	28,44	119,96	153,77
Si	8,149	16,34	33,46	45,13	166,73
R	10,484	19,72	30,156	51,354	65,007
S	10,357	23,4	35,0	47,29	72,5
C1	13,01	23,80	39,90	53,5	67,80
A1	15,755	27,62	40,90	59,79	75,0
K	4,339	31,81	46,0	60,90	82,6

Ca	6,111	11,868	51,21	67	84,39
----	-------	--------	-------	----	-------

Bu jadvaldan ishqoriy metallar eng kam ionlanish energiyasiga egaligi koʻrinib turibdi. Bir ionlanish potensialining qiymati, elementda E₁ dan E₂ ga oʻtganda ionlanish tez oʻzgaradi. Masalan, bor atomidagi 1, 2, 3 elektronlarga nisbatan 4 va 5 elektronlarni uzish uchun oʻn barobar koʻp energiya sarf qilinadi. Bu hol elektronlarni qavatlarga boʼlishga imkon yaratdi. Bu oʻzgarishni 4.6- jadvaldan koʻrish mumkin.

4.4-rasmda bor atomi va ionlari uchun pogʼonalar energiyasi va ularning J_i (i=1, 2, 3, 4, 5) boʼlgandagi qiymatlari koʻrsatilgan.



4.4-rasm. Bor atomi va ionlarining energetik pogʼonasi hamda ionlanish energiyasini tasvirlaydigan sxema

1s va 2s elektronlarning yadro bilan bogʼlanish energiyasi 1 ortgan sari koʼipayishi, ion radiusining kamayishi va zaryadining ortishi bilan tushuntiriladi. Umuman olganda har qanday atomning ionlanish darajasini hosil qilish mumkin. Lekin kimyogarlarni faqat birinchi ionlanish energiyasi qiziqtiradi, chunki 1eV $9,664 \cdot 10^4$ J/molga ekvivalentdir. Shuning uchun kimyoviy jarayonlarning energetik effektlari birinchi ionlanish energiyalari bilan oʻlchanadi. Haqiqatan ham, energiya yutilish va ajralishi bilan boradigan kimyoviy jarayonlarda 1 mol moddaga oʼnlab, yuzlab Joul energiya sarf boʼlgan yoki ajralib chiqqan boʼlar edi. Masalan, ftor atomidan ettita elektronni chiqarib yuborish uchun $6,276 \cdot 10^4$ J/m energiya kerak boʼlgan boʼlar edi. Ravshanki, ionlanish energiyasi atomlarni tavsiflashda katta ahamiyatga ega. Uning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misolda yaqqol tasdiqlash mumkin.

Atomda elektronlarni yadro oʻz maydonida ushlab turadi. Bu maydon atomga yaqinlashgan boshqa erkin elektronlarni ham tortishi mumkin. Lekin bu erkin elektron atomdagi elektronlarning itarilish kuchiga duch keladi. Nazariy va tajriba natijalari koʼpgina atomlarda qoʼshimcha elektronlarning yadroga tortilish energiyasi atomdagi elektronlarning itarilish energiyasidan katta boʼlishini koʼrsatadi. Bunday atomlar oʼzlariga tashqaridan bir elektron biriktirib olib, barqaror

manfiy zaryadli ion hosil qiladi. Ajralib chiqqan energiya atomning elektronga moyilligi bilan aniqlanadi. Elektronga moyillik ham ionlanish energiyasi kabi elektron voltlarda o'lchanadi.

Kvant-mexanik hisoblashlar ikki va undan ortiq elektronlarning atomga birikishi natijasida hosil bo'lgan itarilish energiyasi har doim tortilish energiyasidan katta ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun atomning elektronga moyilligi ikki va undan ortiq elektronlar uchun manfiy qiymatga ega. SHuning uchun bir atomli ko'p zaryadli manfiy ionlar (O^-_2 , S^-_2 , N^-_3 va hokazo) erkin holatda mavjud bo'la olmaydi, ya'ni bunday ionlar molekulada ham, kristallarda ham mavjud emas. Ba'zi moddalar molekulalaridagi Na^{2+} , S^{2-} , Si^{2+} , O^{2-} va hokazo ionlarni faqatgina shartli ravishda mavjud deb qarash mumkin. Elektronlarga moyillik hamma atomlar uchun ham ma'lum deb bo'lmaydi. Quyidagi 4.7-jadvalda ba'zi atomlarning elektronga moyilligi qiymatlari keltirilgan.

Ba'zi element atomlarining elektronna moyilligi 4.7-jadval.

Atom	E, eV						
H	0,754	O	1,47	Na	0,47	S	2,15
He	-0,22	N	0,05	Mg	-0,32	C1	3,61
Li	0,82	S	2,15	A1	0,52	Vr	3,37
Be	0,10	F	3,5	Si	1,46	J	3,08
B	0,33	Ne	0,57	P	0,8	Se	2,02

Yuqoridagi jadvaldan elektronga moyillik energiyasi galogenlarda eng yuqori qiymatga egaligi, ftordan yodga qarab elektronga moyillik oldin bir necha marta ortishi, keyin esa kamaya borishi ko'rinish turibdi. Bu ftroring elektronga moyilligining yuqoriligi bilan tushuntiriladi.

Namunaviy masalalar yechish.

1-masala. Tartib raqami 13 ga teng bo'lgan element atomining elektron formulasini tuzing.

Yechish; Buning uchun berilgan elementning davriy jadvaldagi o'rmini aniqlaymiz. Tartib raqami 13 ga teng bo'lgan element Al. Aluminiy III davr va uchinchi guruhchasida joylashgan P-elektron oilaga tegishli $X_n=2n^2$ ga ko'ra, $n=1$ ga electron ($2 \times 1^2 = 2$), $n=2$ ga 8 ta elektron, $n=3$ da 3 ta elektron bo'ldi. Demak, Al atomida elektrojnarning joylashish tartibi 2, 8, 3 bo'ldi.

$n=1$ bo'lganda $l=0$


$X_L=2(2l+1)$ ga asosan 1 s pog'onalarda

$X_0=2(2\times0+1)=2$ ta elektron bo'ladi

$n=2$ ga $l=0,1$ unda $2s$ va $2p$ pog'onachalar bo'ladi.

$n=3$ ga $l=0,1,2$ unda $3s, 3p, 3d$ mavjud.


Energetik pog'ona va pog'onachalarda elektronlar soni ma'lum bo'lgandan so'ng, elektronlarning energiya shkalasidan foydalanib, Al atomining elektron fo'rmlasini quyidagicha yoziladi.



Elektron fo'rmladagi S va P pog'onacha oldidagi raqamlar har qaysi pog'onaning tartib raqamini, pog'eonalarning darajasidagi raqamlar esa, ayni pog'onachalardagi elektronlar sonini ko'rsatadi.

2-masala. Atomning eng tashqi energetik pog'anasi $\dots 3s^2 \quad 3p^6$ formula bilan ifodalangan elementning tartib raqamini ayting. Bu element qaysi elektron oilasiga tegishli?

Yechish; Elektronlarning energiya shkalasidan foydalanib, bu element atomning toqliq elektron formulasini tuzamiz.



Elektron formulaga ko'ra elektronlar soni 18 ta. Elementning tartib raqami atomdagи elektronlar yoki pratonlar soniga teng bo'lgani sabali bu elementning tarti raqami 18 ga teng. Davriy jadvalda tartib no'meri 18 ga teng bo'lgan element Ar-argondir. Argon p-elektron oilasiga mansub, chunki yning ohirgi elektronlari p-pog'onachada joylashgan.

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

1. Atom tuzilishidagi kvant sonlarinini xarakterlab bering.
2. Gund qoidasini ta'riflab bering.
3. Klechkovskiy qoidasini misollar bilan tushuntirib bering.
4. Atomning energetik pog'anachalarning qaysi biri oldin to'ladi?
 - a) 4p yoki 3d
 - b) 3d yoki 4s
 - c) 4d yoki 5s
 - d) 4d yoki 5p
5. Quyidagi elektron formulalar bilan ifodalangan elementlarning davriy jadvalda joylashgan ornini aniqlang:
 - a) $1s^2 \quad 2s^2 \quad 2p^3$
 - b) $1s^2 \quad 2s^2 \quad 2p^6 \quad 3s^2 \quad 3p^6 \quad 3d^3 \quad 4s^2$
 - c) $1s^2 \quad 2s^2 \quad 2p^6 \quad 3s^2 \quad 3p^6$
 - d) $1s^2 \quad 2s^2 \quad 2p^6 \quad 3s^2 \quad 3p^6 \quad 3d^{10} \quad 4s^2$
6. Molibden atomining elektron konfigratsiysini aniqlang.
 - a) $\dots 4s^2 \quad 3d^{10} \quad 4p^6 \quad 5s^2 \quad 4d^1$
 - b) $\dots 5s^2 \quad 4d^2$
 - C) $\dots 4p^6 \quad 4d^4 \quad 5s^1$
 - d) $\dots 5s^2 \quad 4d^6$
7. Platina atomining elektron konfigratsiysini aniqlang.
 - a) $\dots 6s^2 \quad 5d^{10}$
 - b) $\dots 6s^2 \quad 5d^8$
 - C) $\dots 5p^6 \quad 5d^{10} \quad 6s^2$
 - d) $\dots 5d^9 \quad 6s^1$
8. Xrom atomida nechta bo'sh d – orbitallar bor?

9. Qanday elektron konfiguratsiya atomining qo \square zg \square algan holatini tavsiflaydi?

a) ...2s²; b) ...3s² · 3d¹; v) ...4s² · 3d²; g) ...3s¹ · 3p³ · 3p⁴; d) ...4s² · 3d⁵.

10. Atomdagи elektronlarning bosh kvant soni n=4 bo \square lganda, orbital kvant soni "l" qanday maksimal qiymatga ega bo \square ladi?

5-amaliy mashg \square ulot

5. Kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat

Kimyoviy reaksiya tezliklari va unga ta'sir etuvchi omillarni o \square rganadigan kimyoning bo \square limiga *kimyoviy kinetika* deyiladi. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyaning vaqt birligi ichida o \square zgarishi bilan o \square lchanadi.

$$V = \frac{c_2 - c_1}{t_2 - t_1} = \frac{\Delta c}{\Delta t} \text{ mol/s},$$

bunda V-kimyoviy reaksiyaning o \square rtacha tezligi;

C₂-C₁-moddalar konsentratsiyasining o \square zgarishi ;

t₂-t₁ -vaqt oralig \square i;

Ma'lum vaqt (t₂-t₁) oraligida olingan tezlig reaksiyaning urtacha tezligi deyiladi.

Kimyoviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyasiga, haroratiga, katalizatorning ishlashiga va boshqa omillarga bo \square gлиq bo \square ladi.

5.1. Reaksiya tezligining konsentratsiyasiga ta'siri

Massalar ta'siri (Gulberg va M.Vaage) qonuni bilan ifodalanadi.

Reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentratsiyalarining ko \square paytmasiga to \square g \square ri proparsionaldir.



$$V = K [A]^m * [B]^n$$


Bu yyerda [A] va [B] –A va B moddalarning molar konsentratsiyasi.

m va n ularning stixiometrik koeffitsientlari.

K-proparsionallik koeffitsienti bo \square lib unga reaksiyaning tezlik konsentratsiyasi deyiladi.

Massalar ta'siri qonuni gazsimon va erigan moddalar uchun qullaniladi. Agar reaksiyada qattiq moddalar ham ishtirok etsa u holda reaksiya tezligi faqat gazsimon va erigan moddalarning konsentratsiyasiga bog \square liq bo \square ladi.

Masalan, ko \square mirlning yonish reaksiyasi



-bunda tezlik faqat kislorodning konsentratsiyasiga bogliq.

$$V = K[O_2]$$

Reaksiya tezligiga haroratning ta'siri miqdoriy jihatdan Vant-Goff qoidasi bilan ifodalanadi. **Temperatura har +10°C gradusga oshganda reaksiyaning tezligi 2-4 marta oshadi.**

Bu qoida quyidagi matematik tenglama bilan ifodaladi:

$$V_{t_2} = V_{t_1} * \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

Bu yyerda: V_{t_1} -reaksiyaning t_1 dagi tezligi

V_{t_2} -reaksiyaning t_2 dagi tezligi .

λ -harorat koeffitsienti, harorat har +10 °C ga oshganda reaksiyaning tezligi necha marta oshishini ko'rsatadi.

Masalan. Agar reaksiyaning temperatura koeffitsienti 2-ga teng bolganda temperatura 20°C dan 70 °C ga oshirilganda reaksiyaning tezligi necha marta ortadi?

Yechimi : masala shartiga kura $\gamma = 2$, $t_1 = 20^\circ c$, $t_2 = 70^\circ c$

$$V_{t_2} = V_{t_1} * \gamma^{\frac{t_2 - t_1}{10}}$$

$$V_1 = V_2 * 2^{\frac{70-20}{10}} = V_2 * 2^5 = 32 * V_2$$

Demak, reaksiya tezligi 32 marta ortadi.

5.2. Gaz moddalarda reaksiya tezligiga bosim ta'siri

Gazsimon moddalarda konsentratsiya orniga bosim ishlataladi. Reaksiya tezligi konsentratsiyaga bogliq boladi. Gaz moddalarning bosimi oshsa, reaksiya tezlik ham ortadi.

Xajm bilan tezlik orasida teskari proporsionallik bor.

$$V^1 = \frac{1}{V}; \text{ xajm ortsasida, tezlik kamayadi. } V - \text{xajm.}$$

Masalan: $2CO_2 + O_2 = 2CO_3$ reaksiyada aralashmaning xajmi 2 marta kichraytirilsa, tezlikning o'zgarishini aniqlang.


$V = K[CO_2]^2 \cdot [O_2] = K^2 \cdot 2 = 8$ k; Demak, tezlik oldingiga nisbatan 8 marta oshar ekan.

5.2. Kimyoviy reaksiyaning aktivlanish energiyasi

Kimyoviy reaksiya sodir bo'lishi uchun zarrachalar o'zaro to'qnashishi kerak. Molekular kinetik nazariyaga muvofiq molekulalar o'rtaqidagi to'qnashishlar soni mutlaq haroratning kvadrat ildiziga to'g'ri proporsionaldir. Masalan; 10°C da boradigan reaksiyani 20°C ga o'tkazilsa, reaksiya tezligi V=2% ortishi kerak, ammo 100 % dan 200 % ortadi. Demak, harorat ortsa, reaksiyalarning tezligi turlicha oshadi.

Bularning hammasini e'tiborga olib, massalar ta'siri qonuniga qo'shimcha aktivlanish nazariyasi degan nazariya kiritilgan. Bu nazariyani D.V. Alekseyev, S.Arrenius va boshqa olimlar rivojlantirgan. Bu nazariyaga binoan molekulalar orasida reaksiyalar borishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak.

1. Har qanday to'qnashuvda ham reaksiya bormaydi, unda ichki energiyaga ega bo'lgan aktiv zarrachalari bo'lishi kerak.
2. Zarrachalarning to'qnashish momenti bo'lishi kerak.
3. Moyillik bo'lishi kerak. Masalan: benzol bilan toluol bir-biriga o'xshash, shuning uchun soatlab reaksiya olib borilsa ham reaksiya ketmaydi, moyillik yo'q.
4. Molekulalar kerakli joylari bilan to'qnashish kerak.



Zarrachalar bir-biriga yaqin kelib, ikkala zarrachadagi elektron pog'onalarining o'zaro itarilish kuchlari xalaqit beradi. Bu itarilish kuchlarini katta energiyaga ega bo'lgan aktiv zarrachalarga yenga oladi. Passiv zarrachalarni aktiv holatga o'tkazish uchun ularga berilishi zarur bo'lgan qo'shimcha energiya ayni reaksiyaning aktivlanish energiyasi deyiladi.

E_{akt} -aktivlanish energiyasi qancha yuqori bo'lsa, reaksiya shunchalik sekin boradi.

E_{akt} -aktivlanish energiyasi reaksiyada ishtirok etadigan moddalarning tabiatiga bog'liq.

a) Agar reaksiyada ishtirok etgan ikki modda molekulalardan tashkil topgan bo'lsa,


$$E_{akt} = 80 \div 250 \text{ kJ/mol.}$$

b) Agar reaksiyada ishtirok etayotgan moddalar qarama-qarshi zaryadli ionlar bo'lsa,

$$E_{akt} = 0 \div 18 \text{ kJ/mol}$$

d) Erkin radikallar ishtirokida boradigan reaksiyalarda,

$$E_{akt} = 0 \div 9 \text{ kJ/mol}$$



5.1.-rasm. Kimyoviy reaksiyalarning aktivlanish energiyasi

Bu yyerda:

E_2 - reaksiya koordinatasi

E_1 -sistemaning reaksiyadan oldingi energiya holotami.

E_2 -sistemaning reaksiyadan keyingi energiya holotami.

E_1^x -toqri reaksiyaning aktivlanish energiyasi.

E_2^x -teskari reaksiyaning aktivlanish energiyasi.

A+B bilan reaksiyaga kirishib C+D hosil boqlishi uchun K-toqsiqni yengish kerak.


K-aktivlanish energiyasi yoki energetik glovni tasvirlaydi. Sistemada E_1 dan E_2 ga toqridan-toqri ota olmaydi, buning uchun u energiyani K ga qadar yetkazish kerak, ya ni energetik glovni yengib oltish kerak. Buning uchun sistema issiqlik, yoruglik va energiyaning boshqa turlarini qabul qilib, aktiv holatga oltish kerak, aktiv zarrachalargina “glov” dan ota oladi. Aktivlanish energiyasini hisoblash uchun Arrenius tenglamasidan foydalaniladi.

$$K = A + \frac{E_a}{RT}$$


Bu yyerda: Ea-aktivlanish energiyasi 1 mol moddadagi molekulalarni reaksiyaga kirishuvi uchun zarur boqlgan energiyaga aytiladi. kkal/mol, kJ/mol. E-natural logarifm asosi. T- mutlaq harorat ($t+273^\circ\text{C}$), R-universal gaz doimiyligi.

5.3. Kimyoviy muvozanat

Barcha kimyoviy reaksiyalarni 2 turga: qaytar va qaytmas reaksiyalarga boqlish mumkin. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar toqliq reaksiya mahsulotlariga aylanadigan jarayonlar qaytmas reaksiyalar deyiladi.



Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning bir qismi reaksiya mahsulotiga aylanib, ayni vaqtida reaksiya mahsulotlari qaytadan dastlabki moddalarga aylanib turadigan kimyoviy jarayonlar qaytar reaksiyalar deyiladi.



qaytar reaksiyalarni umumiy tarzda quyidagicha yozish mumkin:



Massalar ta'siri qonuniga asosan bu

$$V_1 = K_1 [A]^m * [B]^n \text{ -to} \square \text{g} \square \text{ri}$$

$$V_2 = K_2 [C]^p * [D]^q \text{ -teskari reaksiyalar tezligi bo} \square \text{ladi.}$$

Vaqt o\rtishi bilan to\rg\ori reaksiyaning tezligi kamayadi, teskari reaksiyaning tezligi esa ortadi. Chunki reaksiya uchun olingan moddalarning dastlabki konsentratsiyalari kamayadi, reaksiya mahsulotlarining konsentratsiyasi esa ortadi.

Ma'lum bir vaqt o\rtgandan keyin ular o\zaro tenglashadi, ya'ni $V_1 = V_2$ bo\ladi. To\rg\ori reaksiya bilan teskari reaksiya tezligi o\zaro tenglashganda kimyoviy muvozanat qaror topadi.

$$K_1 [A]^m * [B]^n = K_2 [C]^p * [D]^q \text{ bo} \square \text{ladi}$$

bundan $\frac{[C]^p * [D]^q}{[A]^m * [B]^n} = \frac{K_1}{K_2} = K$ kelib chiqadi.

Bu yyerda: K_1 va K_2 ayni reaksiya uchun o\zgarmas kattalik bo\lib, muvozanat konstantasi deyiladi.

Biror tashqi ta'sir (S,T,P) ostida reaksiyaga kirishayotgan moddalarning muvozanatdagi konsentratsiyalarning o\zgarishiga kimyoviy muvozanatning siljishiga deyiladi. Muvozanatning qaysi tomonga siljishi Le-Shatele prinsipi bilan aniqlanadi. Ta'rif: ***kimyoviy muvozanatda turgan sistemaga tashqi ta'sir ko\rsatilsa, muvozanat shu ta'sirni kamaytirish reaksiyasi tomonga siljiydi.***


Bu qonunga ko\ra muvozanatda turgan sistemaga biror moddaning konsentratsiyasini oshirilsa, muvozanat shu modda konsentratsiyasini kamaytiradigan reaksiya tomonga siljiydi.



b) harorat oshirilganda kimyoviy muvozanat endotermik reaksiya tomonga, harorat pasaytirganda esa ekzotermik reaksiya tomonga qarab siljiydi:



c) gazlar orasida beradigan reaksiyalarga bosim oshirilishi bilan kimyoviy muvozanat kam sondagi gaz molekulalari hosil bo'lishi reaksiyasi tomonga bosim kamayishi bilan esa ko'p sondagi gaz molekulalari hosil bo'lishi reaksiyasi tomoniga siljiydi.




Molekulalar soni o'zgarmaydigan reaksiyalarda bosim o'zgarishining ta'siri bo'lmaydi.



Namunaviy masalalar yechish

1-masala. Etilennenning yonish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Bu reaksiyada kislороднинг концентрацияси 3 мarta oshirilsa, reaksiya tezligi necha marta ortishini hisoblang.

Yechish. Dastlab reaksiyaning tezligi massalar ta'siri qonuniga kura quyidagicha:

$$V_1 = K [C_2H_4] * [O_2]^3 \quad \text{bo'ladi.}$$

Kislороднинг концентрациясини 3 мarta oshirsak, reaksiya tezligi

$$V_1 = K [C_2H_4] * [3]^3 = 27 \quad \text{bo'ladi.}$$

Demak reaksiya tezligi 27 marta oshadi.

2-masala.

$2NO + O_2 \rightleftharpoons 2NO_2$ reaksiyada muvozanat qaror topganda, $[NO]$ - 0,056 mol/l;

$[O_2]$ -0,028 mol/l; $[NO_2]$ - 0,044 mol/l; bo'ladi.

Reaksiyaning muvozanat konstantasini hisoblab toping.

Yechish: massalar ta'siri qonuniga ko'ra reaksiyaning muvozanat konstantasi:

$$K = \frac{[NO_2]^2}{[NO]^1 [O_2]}$$

Berilgan son qiymatlarini tenglamaga qo'yamiz:

$$K = \frac{0,044^2}{0,056^1 * 0,028} = 22,2$$

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

1. Kimyoviy reaksiya tezligiga taʼsir qiluvchi omillarinini misollarda tushuntirib bering.
2. Vant-Goff qoidasini tushuntirib bering.
3. $A+2B=C$ reaksiya tezligi $0,028 \text{ mol/l}$, $[A]=0,75 \text{ mol/l}$, $[B]=0,9 \text{ mol/l}$. Shu reaksiyaning tezligi konstantasini hisoblang.
 - 1) $0,04 \text{ mol/l}$
 - 2) $0,004 \text{ mol/l}$
 - 3) $0,4 \text{ mol/l}$
 - 4) $4,0 \text{ mol/l}$
4. Quyidagi reaksiyada $[NO]$ moddaning konsentratsiyasini 2 marta oshirsak, reaksiya tezligi qanday oʻzgaradi? $2NO + O_2 \rightleftharpoons 2NO_2$
 - 1) 4 marta oshadi;
 - 2) 4 marta kamayadi;
 - 3) 8 marta oshadi;
 - 4) 8 marta kamayadi.
5. Quyidagi $2NO_{(G)} \rightleftharpoons 2NO_{(G)} + O_{2(G)}$ sistemada hosil boʻlgan moddalar konsentratsiyasini 3 marta oshirsak, toʻgʻri reaksiya tezligi qanday oʻzgaradi?
 - 1) 27 marta oshadi;
 - 2) 27 marta kamayadi;
 - 3) 9 marta oshadi;
 - 4) 9 marta kamayadi.
6. Quyidagi $2H_2S + 3O_2 \rightleftharpoons 2H_2O + 2SO_2$ sistemada dastlabki moddalarning xajmini 2 marta kamaytirsak, toʻgʻri reaksiya tezligi qanday oʻzgaradi?
 - 1) 32 marta oshadi;
 - 2) 32 marta kamayadi;
 - 3) 64 marta oshadi;
 - 4) 64 marta kamayadi.
7. Quyidagi $2NO_2 \rightleftharpoons 2NO + O_2$ sistemada $[NO]$ ning konsentratsiyasini 2 marta oshirsak, teskari reaksiya tezligi qanday oʻzgaradi?
 - 1) 4 marta oshadi;
 - 2) 4 marta kamayadi;
 - 3) 8 marta oshadi.
 - 4) 8 marta kamayadi.
8. Reaksiyaning harorat koeffitsienti $\gamma=2$ ga teng. Agar haroratni $t_1=20^\circ\text{C}$ dan $t_2=40^\circ\text{C}$ ga koʻtarsak, tezlik qanday oʻzgaradi?
 - 1) 4 marta kamayadi;

- 2) 4 marta oshadi;
- 3) 8 marta kamayadi;
- 4) 8 marta oshadi.

9. Reaksiyaning harorat koeffitsienti $\gamma=2$. Agar haroratlar farqi $\Delta t=30^\circ\text{C}$ ni tashkil etsa, tezlik qanday o'zgaradi?

- 1) 4 marta kamayadi;
- 2) 4 marta oshadi;
- 3) 8 marta kamayadi;
- 4) 8 marta oshadi.

10. Quyidagi $2A+B=C$ sistemada konsentratsiyalar, $[A]=0.3 \text{ mol/l}$, $[B]=0.5 \text{ mol/l}$, tezlik konstantasi 1 ga teng bo'lgan reaksiya tezligini hisoblang.

- 1) 0,045 mol/l, min;
- 2) 0,3 mol/l, min;
- 3) 4,5 mol/l, min;
- 4) 0,5 mol/l, min.

6-amaliy mashg'ulot

6. Eritmalar konsentrasiyasi

Ikki yoki bir necha komponentlardan iborat qattiq yoki suyuq bir jinsli gomogen sistemalar eritma deb ataladi. Eritmani tashkil etgan komponentlardan biri erituvchi (mihit), qolganlari esa eruvchi (erigan modda) bo'ladi.

Asosan molekulasi ion yoki qutbli bog'lanishga ega har qanday modda erituvchi bo'ladi.

Agar erituvchi va eruvchi molekulalari ion yoki qutbli bog'lanishda bo'lsa, u vaqtida qaysi moddaning miqdori ko'p bo'lsa, shu modda erituvchi bo'ladi.

D.I.Mendeleyev moddalarning eritmadiagi holatini tekshirib, erish jarayonining kimyoviy xususiyati to'g'risidagi tushunchani yaratdi. U qattiq, suyuq yoki gazsimon moddalar erituvchida eritilganda erigan moddaning molekulalari yoki ionlari erituvchi bilan o'zaro kimyoviy ta'sir etib, birikmalar hosil qiladi degan xulosaga kelib, bu birikmalarni solvatlar deb atadi. Agar erituvchi suv bo'lsa, erigan modda molekulalari yoki ionlari suv molekulalari bilan birikib, gidrat hosil qiladi, jarayon esa gidratlanish deyiladi. Erigan moddalarning va erituvchining molekulalari qanchalik polyar bo'lsa, ion bog'lanishga eda bo'lsa solvatlar shunchalik oson hosil bo'ladi va ular shunchalik barqaror bo'ladi.

Gidratlar hosil bo'llishini, shuningdek, moddalarning erishi natijasida issiqlik yutilishini yoki chiqishini nazarda tutib, eritmalarini kimyoviy

birikmalardek qarash mumkin edi. Biroq eritmalar tarkibining o'zgaruvchanligi, ya'ni erigan modda bilan erituvchining miqdorlari orasida ekvivalent nisbat yo'qligi ularni mexanik aralashmalarga yaqinlashtiriladi.

Demak, eritmalar mexanik aralashmalar bilan kimyoviy birikmalar oralig'i idadir.

Ko'pincha, eritmalar dispers sistemalar deb yuritiladi. Erigan modda dispers - faza, erituvchi esa dispersion muhit deb ataladi.

Moddalarning agregat holatlariiga qarab, turli dispers sistemalar bo'lishi mumkin.

Masalan: gaz + gaz;	qattiq modda + suyuqlik;
suyuqlik + gaz;	gaz + qattiq modda;
qattiq modda + gaz;	qattiq modda + qattiq modda va

hokazo.

Dispers modda zarrachalarning maydaligiga qarab, dispers sistemalar bir nechta guruhga bo'linadi:

1. Dag'al dispers sistemalar;
2. Kolloid eritmalar;
3. Molekular yoki chin eritmalar.

1. Dag'al dispers sistemalarda modda zarrachalari $100 \text{ m}\mu$ dan katta bo'ladi. Ba'zan bu zarrachalarni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin. Bunga misol qilib suspenziya va emulsiyalarni olish mumkin. Dag'al dispers sistemalar geterogen sistemalardir.

2. Kolloid eritmalar. Bunda dispers modda zarrachalarining o'lchами $1 \text{ m}\mu$ bilan $100 \text{ m}\mu$ oralig'ida bo'ladi. Bu eritmalar geterogen sistema bo'lib, zarrachalarni ultramikroskopda ko'rish mumkin. Misol qilib, kraxmal eritmasini olish mumkin.

3. Molekulyar yoki chin eritmalar. Bunday sistemaning dispers zarrachalari $1 \text{ m}\mu$ dan kichik bo'ladi va ularni hech qanday o'ptik asboblar bilan ko'rib bo'lmaydi. Misol qilib suv bilan spirit aralashmasini olish mumkin. Chin eritmalar gomogen sistemadir. Erigan modda va erituvchi zarrachalar bir-biri orasida bir tekisda tarqalgan bo'ladi.

Agar eruvchi qattiq moddaga erituvchi quyilsa, eruvchi moddaning yuzasidagi molekulalar yuzadan uzilib, erituvchi ichiga tarqaladi – eriydi. Agar eruvchi modda ortiqcha olingan bo'lsa, bu jarayonning aksi ham boradi. Erigan moddaning bir qismi cho'kadi.

Vaqt birligi ichida erigan va cho'kkani moddaning miqdori tenglashganda, muvozanat qaror topadi:

Cho□kma \longleftrightarrow erigan modda

Muvozanatdagi bunday eritma to□yingan eritma deyiladi.

Erigan moddasi to□yingan eritmadi giga qaraganda kam bo□lgan eritma to□yinmagan eritma deyiladi.

Ba'zi moddalar eriganda kimyoviy jarayonlardagidek, issiqlik yutiladi yoki issiqlik ajralib chiqadi. Modda erish vaqtida qattiq moddaning kristall panjarasi buzilib, modda zarrachalari eritmada tekis tarqaladi. Bu jarayon vaqtida issiqlik yutiladi. Gidratlanish yoki solvatlanish jarayonida esa, issiqlik ajralib chiqadi.

Moddalarning erish issiqligi erituvchining miqdoriga ham bog□liq. Agar erituvchidan ko□p miqdorda olinsa, moddaning erish issiqligi o□zgarmas qiymatga ega bo□ladi.

Bir mol modda eriganda yutiladigan (yoki ajralib chiqadigan) issiqlik miqdori shu moddaning erish issiqligi deb ataladi va *Q* harfi bilan belgilanadi.

$$Q = -q_1 + q_2$$

bu yyerda: q_1 – kristall panjarani yemirish uchun sarf bo□ladigan issiqlik;

q_2 – solvatlarning (gidratlar) hosil bo□lishida ajralib chiqadigan issiqlik.

Moddalarning eruvchanligi, eruvchi va erituvchining tabiatidan tashqari, haroratga ham bog□liqdir.

6.1. Eritmalarning konsentratsiyasini ifodalash usullari

Eritmalarning asosiy xarakteristikasi ularning konsentratsiyasidir.

Eritmaning konsentratsiyasi deb, ma'lum og□irlilikda yoki hajmda olingan eritmadi erigan modda miqdoriga aytildi.

Eritmalarning konsentratsiyalari turli usullar bilan ifodalanadi, masalan, foizli, molyar, normal, molyal konsentratsiyalardir.

Foizli konsentratsiya – 100 g eritmadi erigan moddaning grammlar sonini ko□rsatadi. Masalan, osh tuzining suvdagi 5% li eritmasi, 100 g eritmada 5 g osh tuzi borligini ko□rsatadi, ya'ni bu eritma 95 g suv, 5 g tuzdan iborat.

Erigan moddaning massasini m_1 , eritmaning massasini m_2 bilan va eritmaning foiz konsentratsiyasini $C\%$ bilan belgilasak, ular o□rtasidagi bog□lanish quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C\% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100$$

Agar eritmaning miqdori massa birligida (gramm yoki kilogramm) ifodalanmasdan hajm birligida (millilitr yoki litr) ifodalansa, u holda

eritmaning zichligini bilish zarur. Chunki eritmaning massasi bilan uning hajmi va zichligi o'rtaida quyidagi bog'lanish bor:

$$m_2 = dv$$

bu yyerda: d – zichlik

m_2 – eritmaning massasi

v – eritmaning hajmi

Buning uchun formuladagi m_2 o'rniiga dv ni yozish kerak:

$$C\% = m_1 / dv \cdot 100;$$

Misol: 3 litr 20% li eritma ($d=1,225$) tayyorlash uchun necha gramm modda kerak bo'ladi?

Berilgan: $V = 3 l$

$$C\% = 20\%$$

$$d = 1,225$$

$$m_1 = ?$$

Yechish: $C\% = m_1 / dv \cdot 100$ formuladan m_1 ni topamiz:

$$m_1 = \frac{C\% \cdot dv}{100} = \frac{20 \cdot 1,225 \cdot 3000}{100} = 735 g$$

Demak, $m_1 = 735$ gramm modda kerak bo'ladi.

Molar konsentratsiya – 1 litr eritmada erigan moddaning miqdori gramm-molekular (mollari) soni bilan ifodalanadi. Molyal konsentratsiya "m" harfi bilan belgilanadi. Masalan, agar 1 litr eritmada 1 mol (58,5 g) osh tuzi $NaCl$ erigan bo'lsa 1 molar, 2 mol erigan bo'lsa 2 molar eritma deyiladi.

Molar eritma quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C_M = m_1 / Mv \cdot 1000$$

Bu yyerda: C_M - eritmaning molar konsentratsiyasi

m_1 - erigan moddaning massasi, g.

M - erigan moddaning molekular massasi, g/mol.

V - eritmaning hajmi, ml.

Misol: tarkibida 2,5 g uyuvchi natriy ($NaOH$) bo'lgan 250 ml eritmaning molyarligini aniqlang.

Berilgan: $m_1 = 2,5 g$

$$V = 250 ml$$

$$M_{NaOH} = 40 g/mol$$

$$\text{Yechish: } C_M = \frac{m_1 \cdot 1000}{M \cdot V} = \frac{2,5 \cdot 1000}{40 \cdot 250} = 0,25 \text{ mol/l}$$

Molyal konsentratsiya – 1000 g erituvchida erigan moddaning miqdori gramm- molekulalar soni bilan ifodalanadi.

Normal konsentratsiya H yoki N harfi bilan belgilanadi.

Masalan: 1 litr eritmada 1 g - ekvivalent sulfat kislota (H_2SO_4) erigan bolsa, 1N eritma boлади. Normal eritma quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C_H = \frac{m_1}{\mathcal{E} \bullet V} \bullet 1000$$

Bu yyerda: C_n – eritmaning normal konsentratsiyasi, g-ekv/l

\mathcal{E} – erigan moddaning gramm ekvivalentligi, g-ekv.

V – eritmaning hajmi, ml

m_1 – erigan moddaning massasi, g

Moddalarning gramm ekvivalentini aniqlash usullari:

Kislotalarning gramm ekvivalenti – (\mathcal{E}_K) shu kislotaning gramm-molekular massasini negiziga (vodorod soniga) boлlinganiga teng.

$$\mathcal{E}_{kislota} = \frac{M_{kislota}}{H^+_{soni}}$$

Masalan, sulfat kislota H_2SO_4 ning gramm ekvivalenti:

$$\mathcal{E}_{H_2SO_4} = \frac{98}{2} = 49 \text{ g-ekv.}$$

Asoslarning gramm-ekvivalenti – (\mathcal{E}_{as}) ularning molekular massasini metal valentligiga, yoki gidroksil guruhlar soniga boлlinganiga teng.

$$\mathcal{E}_{asos} = \frac{M_{asos}}{OH^-_{soni}}$$

Masalan: $Mg(OH)_2$ ning gramm ekvivalenti:

$$\mathcal{E}_{Mg(OH)_2} = \frac{58}{2} = 29 \text{ g-ekv.}$$

Bu yyerda, Mg metalining valentligi “2” ga teng.

Tuzlarning gramm-ekvivalenti – (\mathcal{E}_m) shu tuzning molekulyar massasini barcha metal atomlarining valentligi yigингисига boлlinganiga teng.

$$\mathcal{E}_{tuz} = \frac{M_{tuz}}{n \bullet B}$$

Masalan: $Al_2(SO_4)_3$ ning gramm ekvivalenti:

$$\mathcal{E}_{Al_2(SO_4)_3} = \frac{342}{2 \bullet 3} = 57,0 ;$$

Bu yyerda n – tuz tarkibidagi metallar soni

B – metallning valentligi

Misol: 200 ml eritmada 1,96 g sulfat kislota bor. Shu eritmaning normalligini aniqlang.

Berilgan: $m_1 = 1,96 \text{ g}$.

$$V = 200 \text{ ml.}$$

$$\Theta = 49 \text{ g-ekv.}$$

$$C_H = ?$$

$$Yechish: C_H = \frac{m_1 \cdot 1000}{\Theta \cdot V} = \frac{1,96 \cdot 1000}{49 \cdot 200} = 0,2 \text{ g.ekv/l}$$

Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

1. 300 g 12% li osh tuzi eritmasini tayyorlash uchun qancha tuz va qancha suv olish kerak. (36g va 264g)
2. 125g 5% li oøyuvchi natriy eritmasi tayyorlash uchun necha gramm NaOH va necha grammlri H₂O olish kerak? (6,25g)
3. Eritma tarkibida 5g AgNO₃ va 120 suv bor. Shu eritmaning foiz konsentratsiyasini hisoblang. (4%)
4. Zichligi 1,825 g/cm³ ga teng boylgan 91% li H₂SO₄ eritmasining molyarligi va normalligini hisoblang. (33,8n; 16,9m)
5. 20,25g osh tuzi suvda eritilib, 300 ml eritma tayyorlandi. Eritmaning molyar konsentratsiyasini toping. (1,15m)
6. 200 ml 0,1n eritma tayorlash uchun zichligi 1,755 g/ml bulgan sulfat kislota eritmasidan qancha hajm olish kerak? (0,68 ml)
7. Oøyuvchi natriyning 2n li eritmasi bor. Undan foydalanib 11 0,1n eritmani tayyorlash uchun shu eritmadan qancha olish kerak? (50ml)
8. 10 ml xlorid kislotaning eritmasini neytrallash uchun, oøyuvchi natriyning 15 ml 0,5 n eritmasi sarf buladi. Kislota eritmasining normalligini aniqlang.
9. Sulfat kislotaning 1,2 n eritmasidan 400 ml tarkibida necha gramm sulfat kislota bor? (23,52g)
10. 10% li 50 g eritmaga 200 g suv qushilgan. Hosil boylgan eritmaning protsent konsentratsiyasini toping. (2%)

7-amaliy mashgulot

7. Elektrolit eritmalar va tuzlarning gidrolizi

7.1. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi

Elektrolitik dissotsiatsiya. Tuz, kislota va asoslarning suvdagi eritmalar shunday muhim xususiyatga egaki, ular elektr tokini otkazadi va ionlarga dissotsilanadi. Shuning uchun bu eritmalar elektrolit eritmalar deb ataladi.

Elektr tokini otkazmaydigan eritmalar elektrolitmas eritmalar deyiladi. Bularga qand, glukoza va kopchilik organik moddalarni misol qilib olish mumkin. Bu eritmalar ionlarga ajralmaydi.


Shved olimi S. Arrenius nazariyasiga muvofiq, elektrolitlar (asoslar, kislotalar va tuzlar) suvda eritganda suvning qutbli molekulalari ta'sirida qarama-qarshi ishorali elektr zaryadi bilan zaryadlangan zarrachalarga – musbat va manfiy ionlarga dissotsilanadi – ajraladi. Bu xodisa elektrolitik dissotsiatsia deyiladi.

Musbati zaryadlangan zarrachalar kationlar, manfiy zaryadlangan zarrachalar esa anionlar deyiladi.

Disotsilanish natijasida eritmalar zarrachalarning soni ortadi, eritmaning konsentratsiyasi ham oshadi.

I. A. Kablukov nazariyasiga binoan, elektrolit eritmalarining dissotsilanishiga asosiy sabab ularning erishi yoki solvatlanishidir.

Biz buni quyidagi misolda koreshimiz mumkin: Osh tuzi ($NaCl$) kristall holatda bir-biriga tortilib turuvchi Na^+ va Cl^- ionlaridan tuzilgan. Lekin bu ionlar o'z holicha harakat qilmaydi, chunki ular bir-biri bilan boglangan. Shu sababli osh tuzi kristall elektr tokini otkazmaydi. Osh tuzi suvda eriganda, suv molekulalari Na^+ va Cl^- ionlarini musbat va manfiy qutublari bilan qurshab oladi.



7.1- Rasm. $NaCl$ – ning dissotsilanish sxemasi.

- a) chapda – $NaCl$ ning kristall panjarasi.
- b) o'ngda – $Na Cl$ ning gidratlangan ionlar sxemasi.


Natijada suv dipollari bilan Na^+ va Cl^- ionlar orasida tortishuv vujudga keladi. Bu boglangish ta'sirida Na^+ va Cl^- ionlar orasidagi tortishuv kuchsizlanadi va ular orasidagi boglangish uzilib, gidratlangan

suv molekulalari bilan birikkan holda bir-biridan ajraladi. Shunday qilib, molekulada tayyor ionlar boʻlsa, ular erituvchi taʼsirida bir-biridan ajralib ketadi.

Molekulada tayyor ionlar boʻlmagan taqdirda ham elektrolitik dissotsilanish sodir boʻlishi mumkin. Masalan, asos va kislotalar ana shunday moddalar jumlasiga kiradi, lekin bu molekulalarda qutubli bogʼlanish boʻladi.


7.2. Kislota, asos va tuzlarning dissotsiatsiyalanishi

Kislotalar suvda eritilganda vodorod ioni bilan kislota qoldigʻi ioniga dissotsilanadi:




Suvdagagi eritmalarida kation holida faqat vodorod ionlarini hosil qiluvchi elektrolitlar kislotalar deb ataladi.

Asoslar suvdagi eritmalarida dissotsilanib, kation holida metall ionlarini, anion holiday gidroksil ionlarini hosil qiladi:




Tuzlar suvdagi eritmalarida asos qoldigʻi ioni bilan kislota qoldigʻi ioniga dissotsilanadi:




Shunga koʻra, suvdagi eritmalarida kation holiday asos qoldigʻi ionlarini, anion holida esa kislota qoldigʻi ionlarini hosil qiluvchi elrktritolitlar tuzlar deb ataladi.

Koʻp negizli kislotalar, asoslar, nordon tuzlar va gidroksid tuzlar (asosli) birin-ketin (bosqichli) dissotsilanadi:


Masalan: 1. Uch negizli fosfat kislotaning (H_3PO_4) dissotsilanishi:




2. Ikki negizli mis gidrooksidining dissotsilanishi:




3. Nordon tuz – gidrokarbonat tuzining dissotsilanishi:





4. Asosli tuz – mis gidroksixlorid tuzining dissotsilanishi:



boʻladi.

Eritmadagi musbat zaryadlarning yigʻindisi manfiy zaryadlarning yigʻindisiga teng boʻlgani uchun elektrolit eritmalar elektroneytral boʻladi.

Elektrolitik dissotsilanish jarayoni qaytar jarayondir, yaʼni ionlar va dissotsilanmagan molekulalar muvozanatda boʻladi.

Dissotsilanish darajasi. Ionlarga dissotsilangan molekulalar soning eritilgan elektrolitning umumiylarsoniga nisbati elektrolitik dissotsilanish darajasi (α) deb ataladi.

Eritma suyultirilganda erigan elektrolitning dissotsilanish (α) darajasi ortadi. Juda suyultirilgan eritmalar elektritolit toliq dissotsilanadi ($\alpha=1$). Koʻpchilik hollarda dissotsilanish darajasi foiz bilan ifodalanadi. Elektrolitlar dissotsilanish darajasiga qarab kuchli va kuchsiz boʻladi. Agar α ning qiymati 30% dan ortiq boʻlsa kuchli, 3-30% oraligʻida boʻlsa oʻrtacha kuchli, 3% dan kam boʻlsa kuchsiz elektrolitlar deb ataladi.

Kuchli elektrolitlarga koʻpchilik anorganik kislotalar (HCl , HNO_3 , H_2SO_4) va ishqorlar ($NaOH$, KOH , $Ca(OH)_2$, $Ba(OH)_2$) hamda eruvchan tuzlarning deyarli hammasi kiradi.

Eritmada qisman dissotsilanuvchi elektrolitlar kuchsiz elektrolitlar deyliadi. Sirka kislota (CH_3COOH), karbonat kislota (H_2CO_3) koʻpchilik organik kislotalar, ammoniy gidroksid (NH_4OH), yomon eruvchi asoslar ($Fe(OH)_3$, $Cu(OH)_2$) va hokazo – bularning hammasi kuchsiz elektrolitlardir.

Kuchsiz elektrolitlarning dissotsilanish xususiyati ularning dissotsilanish garajasi bilan oʻlchanadi va quyidagi formulada aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{\text{ionlarga ajralgan modda mol.soni}}{\text{erigan modda molekulalar soni}};$$

Masalan; ammoniy gidroksid NH_4OH ning 0,1Mli eritmasida uning atigi 0,00134 moligina dissotsilanadi. Demak:


$$\alpha = \frac{0,00134}{0,1} = 0,0134 \text{ yoki } \alpha = 1,34\%$$

boʻladi.

Dissotsilanish darajasi elektrolit eritmaning tabiatidan tashqari, eritma konsentratiyasi, haroratga va erituvchinig tabiatiga ham bog'liqdir.

Elektrolitik dissotsilanish darajasi eritma konsentratsiyasi bilan o'zgarganligi uchun kislota va asoslarning kuchini dissotsilanish konstantasi bilan xarakterlash qabul qilingan. Bu konstanta qanchalik kichik bo'lsa, elektrolit shuncha kuchsiz bo'ladi.

Masalan, sirka kislotaning muvozanat konstantasi quyidagicha ifodalanadi:



7.3. Elektrolit eritmalarda boradigan almashinish reaksiyalari

Ionli reaksiyalar. Elektrolit eritmaları orasida sodir bo'ladiğan barcha almashinish reaksiyalari molekulalar orasida bormay, eridan moddanining ionları orasida boradi. Elektrolit eritmalarda boradigan reaksiyalarni molekular tenglama ko'rinishida emas, balki ion tenglama ko'rinishida uch qatorda: 1) molekular; 2) ion va 3) ionlar ishtirok etishini ko'rsatadigan tenglama holida ifodalanadi.


Ionli tenglamani yozishda kuchli elektrolitlar ion ko'rinishida; kam dissotsilanuvchi, qiyin eriydigan va gazsimon moddalar esa molekulyar ko'rinishda yoziladi.

Elektrolit eritmalarda reaksiya borishi uchun: 1) qiyin eriydigan moddalar ya'ni cho'kmaga tushgan (\downarrow), 2) gaz holida ajralgan (\uparrow) moddalar, 3) kam dissotsilanuvchi moddalar hosil bo'lishi kerak. Bunday reaksiyalar ionli reaksiyalar deb ataladi. Agar shu moddalar hosil bo'lmasa reaksiya bormaydi.

Demak, kimiyoviy reaksiyalarning ionli tenglamalarini tuzish uchun avval reaksiyaning molekular tenglamasi, so'ngra to'la ionli tenglamasi, nihoyat reaksiyaning qisqartirilgan ionli tenglamasi yoziladi.

Masalan:


1. Kumush nitrat eritmasiga xlorid kislota eritmasini ta'sir ettiramiz:



Bu reaksiyaning mohiyati shundaki, eritmadiagi Ag^+ ioni Cl^- ioni bilan o'zaro ta'sir etib, $AgCl$ cho'kmasini hosil qiladi, H^+ va NO_3^- ionlari


ushbu almashinish reaksiyasida oʻzgarmaydi, shuning uchun tenglama tuzishda ularni koʻrsatmasdan umumiylar qisqartirilgach ionli tenglama bilan ifodalanadi.

2. Eritmadan qisman gaz holida ajralib chiqadigan modda hosil qiluvchi almashinish reaksiyasiga misol qiliib, natriy sulfidning xlorid kislota bilan oʻzaro taʼsirini keltirish mumkin:




3. Eritmalarda kam dissotsilanadigan birikmalar hosil boʻladigan reaksiyalarga misol qilib kuchli kislotalarning kuchsiz kislota tuzlari bilan oʻzaro taʼsirini, kuchli kislotani kuchli asos bilan neytrallash reaksiyalarini keltirish mumkin:

Masalan: HCl ning CH_3COONa bilan oʻzaro taʼsiri natijasida kuchsiz dissotsiladigan sirka kislota CH_3COOH hosil boʻladi:



Kuchli kislotaning H^+ ionlari natriy asetatning CH_3COO^- ionlari bilan oʻzaro birikadi:




Reaksiyada ishtirok etmaydigan ionlarni tenglamadan chiqarib tashlasak, quyidagi ionli tenglama hosil boʻladi:



Shunday qilib, reaksiya natijasida gaz, kam eruvchi yoki kam dissotsilanuvchi moddalar hosil boʻlmasa, ionlar bir biri bilan kimiyoiy reaksiyaga kirishmaydi, demak kimiyoiy reaksiya ham sodir boʻlmaydi.


Masalan:



Bu ionlar reaksiyadan soʻng oʻzgarmay qoladi, demak, $NaCl$ bilan KNO_3 reaksiyaga kirishmaydi.

7.4. Suvning ion koʻpaytmasi

Distillangan toza suv elektr tokini qisman oʻtkazadi. Bu hol toza suvning oz boʻlsa ham dissotsilanishini koʻrsatadi va quyidagicha ifodalanadi:



Bu tenglamaning muvozanat konstantasi:

$$K = \frac{[H^+][OH^-]}{[H_2O]} = 1,8 = 10^{-16}$$

yoki: $K[H_2O] = [H^+][OH^-]$;

Suvninig dissotsilanish konstantasi qiymatidan koʻrinib turibdiki, suv juda kuchsiz elektrolit, demak, H^+ va OH^- ionlarning suvdagi konsentratsiyasi juda pastdir.

Toza suvning elektr oʻtkazuvchanligini oʻlchash asosida, uning 1 litrida $1000/18,016 = 55,56$ mol boʻlsa ham, (18,016 suvning molekular ogʻirligi) faqat 10^{-7} molgina ionlarga ajralishi topilgan. Demak $55,56 - 10^{-7}$ mol suv dissotsilanmaydi. Shu sababli, dissotsilanish jarayonida suvning konsentratsiyasi oʻzgarmay (55,56 molligicha) qoladi deyish mumkin.

Quyidagi:

$$[H^+][OH^-] = K \cdot [H_2O] = 1,8 \cdot 10^{-16} \cdot 55,56 = 1 \cdot 10^{-14}$$

tenglama moddalarning suvdagi har qanday eritmasida vodorod va gidroksil ionlari koʻpaytmasining doimo oʻzgarmay qolishini va uning $1 \cdot 10^{-14}$ ga teng boʼlishini koʻrsatadi. Bu oʻzgarmas son K_{H_2O} bilan belgilanadi va suvning ion koʻpaytmasi deyiladi:

$$K_{H_2O} = [H^+][OH^-] = 1 \cdot 10^{-14}$$

Toza suv neytral boʼladi, yaʼni undagi H^+ va OH^- ionlarning konsentratsiyasi bir-biriga teng:

$$[H^+] = [OH^-] = \sqrt{1 \cdot 10^{-14}} = 10^{-7}$$

Agar suvgaga (yoki eritmaga) kislota qoʼshilsa, H^+ ionining konsentratsiyasi oshadi (10^{-7} dan koʼp boʼladi), OH^- ioning konsentratsiyasi esa tegishli ravishda kamayadi. Lekin u ionlar konsentratsiyasining koʻpaytmasi $1 \cdot 10^{-14}$ ligicha qoladi. Eritmada H^+ ionlarining konsentatsiyasi OH^- ionlar konsentratsiyasidan koʼp boʼlsa, muhit kislotali boʼladi. Agar suvgaga (yoki eritmaga) asos qoʼshilsa, aksincha OH^- ionlarining konsentratsiyasi oshadi, H^+ ionlari esa kamayadi. Agar eritmada OH^- ionlarining konsentratsiyasi H^+ ionlar konsentratsiyasidan katta boʼlsa, muhit ishqoriy boʼladi.

Shunday qilib, agar $[H^+] = [OH^-] = 10^{-7}$ boʼlsa neytral muhit, $[H^+] > 10^{-7}$ boʼlsa kislotali muhit, $[H^+] < 10^{-7}$ boʼlsa, ishqoriy muhit boʼladi.

H^+ va OH^- ionlarining konsentratsiyalarini manfiy darajalar bilan ifodalash noqulay. Shu sababli muhitning reaksiyasi – kislotalik yoki ishqoriylik darajasi $[H^+]$ ionlarining konsentratsiyasi bilan emas, balki uning teskari qiymati bilan olingan oʼnli logarifmi bilan ifodalash qabul

qilingan. Bu qiymat vodorod korsatkichi deyiladi va pH (peash) bilan ifodalanadi.

$$pH = -\lg[H^+]$$

Demak, neytral muhitda:

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 10^{-7} = 7$$

bo'ladi.

Agar $pH < 7$ bolsa, muhit kislotali, $pH > 7$ bolsa, muhit ishqoriy bo'ladi.

Muhitning reaksiyasi (muhitning kislota yoki ishqoriyligiga) "indikator" deb atalgan moddalarning eritmasidan juda oz miqdorda (1-2) tomchi qoshiladi. Bunda eritma, kislotali yoki ishqoriyligiga qarab, ikki xil tusga kiradi. Masalan, lakkus indikatoridan kislotali eritma qizil tusga, ishqoriy eritma ko'k tusga kiradi.

8-amaliy mashg'ulot

8. Tuzlarning gidrolizi

Ko'pchilik tuzlar suvda eriganda tuz ionlari suvning H^+ va OH^- ionlari bilan kimiyoviy o'zaro ta'sir etib, natijada tuzlarning eritmalarini kislotali yoki ishqoriy muhitga ega bo'lib qoladi, ya'ni reaksiyaning muhitini (pH) o'zgaradi. Bu jarayon gidrolitik parchalanish yoki gidroliz deb ataladi.

Agar tuz ionlari H^+ ionlari bilan biriksa, eritmada OH^- ionlarining konsentratsiyasi oshib ketib, eritma ishqoriy muhitga ega bo'lib qoladi. Agar tuz ionlari bilan suvning OH^- ionlari biriksa, eritmada H^+ ionlarining konsentratsiyasi oshib ketib, eritma kislotali muhitga ega bo'ladi.

Ba'zi tuzlar borki, ularning ionlari suvning ikkala ioni bilan ham reaksiyaga kirishadi, natijada eritma muhitini neytral bo'ladi. Ba'zi tuzlar ham borki, suvda eritilganda gidrolizlanmaydi.

Tuzlarning girdrolizlanishi ularning qanday moddalardan (kuchli yoki kuchsiz elektrolitlardan) hosil bo'lganligiga bog'liq.

Masalan:


1. Kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlarning gidrolizi.

NH_4Cl – kuchsiz asos bilan kuchli kislotaning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan tuz. Bu tuz suvda eritilganda suv molekulاسining OH^- ionari bilan bog'lanadi.



yoki ionli ko'rinishda:






Vodorod ionlari esa eritmada yigilib qoladi natijada eritmaning muhitini kislotali, $pH < 7$ boildi.


2. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bolgan tuzlarning gidrolizi.

Natriy sianid ($NaCN$) kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bolgan tuzdir.

Bu tuz suvda eriganda CN^- ionlari H^+ ionlarini boglab olib oz dissotsialanuvchi HCN kislotani hosil qiladi. Eritmada OH^- ionari yigilib qoladi va eritmaning muhitini ishqoriy, $pH > 7$ boildi.




3. Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bolgan tuzlarning gidrolizi:



Demak, bu vaqtida kuchsiz asos va kuchsiz kislota hosil bolildi. Bularning dissotsilanish konstantasi bir-biriga juda yaqin. Bunda suvning H^+ va OH^- ionlari tuz ionlari bilan boglanadi, reaksiyaning muhitini deyarli neytral $pH=7$ boladi.

4. Kuchli kislota va kuchli asosdan hosil bolgan tuz gidrolizlanmaydi.

Masalan: $NaCl$ tuzi suvda eritilganda, Na^+ ba Cl^- ionlari suvning H^+ va OH^- ionlari bilan oz dissotsilanuvchi molekulalar hosil qilmaydi. Bunday sharoitda suvning dissotsilanmagan molekulalari bilan ionlari orasida muvozanat buzilmaydi. Bunday tuzlarning eritmasi neytral $pH=7$ boladi. Tuz ionlari gidratlangan bolildi.



Gidroliz jarayoni oxiriga borishi uchun:


1. Gidroliz natijasida, yomon dissotsilanadigan kislota va asos hosil bollsa; (buni yuqoridagi misolda korish mumkin)

2. Agar gidroliz natijasida choikma, gaz hosil bollsa;

Masalan: $Al_2S_3 + 6H_2O = \downarrow Al(OH)_3 + H_2S\uparrow$

3. Agar gidroliz natijasida suv hosil bollsa, yoki cheksiz suyultirilsa;

Masalan: $Al_2(CO_3)_2 + 4H_2O = \downarrow Al(OH)_3 + H_2CO_3$



gidroliz jarayoni oxiriga boradi.

Agar ko \square p negizli kislota yoki ko \square p negizli asos tuzlari (Na_3PO_4 , $CuSO_4$, $Al(SO_4)_3$ va hokazo) gidrolizga uchrasa, gidroliz bosqich bilan boradi. Gidroliz mahsuloti nordon tuz va asosdan yoki asosli tuz va kislotadan iborat bo \square ladi.

Tuzlarning gidrolizlanish xususiyati gidrolizlanish darajasi (v) bilan xarakterlanadi.

Gidrolizlanish darajasi erigan tuz molekulاسining qancha qismi gidrolizlanganini ko \square rsatadi.


$$v = \frac{tuzning \cdot gidrolizlangan \cdot molekulalari \cdot soni}{erigan \cdot tuz \cdot molekulalarining \cdot umumiy \cdot soni}$$

Gidrolizlanish jarayoni qaytar jarayon bo \square lib, uning muvozanatini siljитish mumkin. Haroratning ko \square tarilishi bilan suvning dissotsiyalanishi, H^+ va OH^- ionlarining konsentratsiyasi oshadi va natijada gidrolizlanish darajasi ham ortadi.

Gidroliz konstantasi. Gidroliz mahsulotlari konsentratsiyalari ko \square paytmasining gidrolizlanmay qolgan tuz ionlari konsentratsiyasi nisbati gidroliz konstantasi deyiladi.

Yuqorida keltirgan misollardan ko \square rinib turibdiki, eritmada bo \square lgan tuzning hammasi emas, balki ma'lum qismi gidrolizlanadi. Boshqacha qilib aytganda, eritmada tuz bilan u hosil qiladigan kislota va asos orasida muvozanat vujudga keladi. Gidrolizlanadigan modda qismi - gidroliz darajasi muvozanat konstantasiga hamda harorat va tuz konsentratsiyasiga bog \square likdir.

Gidroliz tenglamasini umumiy holda yozamiz. HA - kislota, MON - asos, MA - ular hosil qilgan tuz. Bunda gidroliz uchun quyidagi tenglamani yozamiz:



Bunda muvozanat konstantasi quyidagicha yoziladi:

$$K = \frac{[HA][MOH]}{[MA][H_2O]}$$

Suv konsentratsiyasi suyultirilgan eritmalarda amaliy jihatdan olganda doimiy kattalikka ega. $K[H_2O] = K_2$ deb belgilab muvozanat konstantasi K_2 ni topamiz:

$$K_2 = \frac{[HA][MOH]}{[MA]}$$

Gidroliz konstantasi qiymati mazkur tuzning gidrolizga kirishish xususiyatini belgilaydi.

Kuchsiz kislota bilan kuchli asosdan tashkil topgan tuz uchun gidroliz konstantasi kislotaning dissotsiyalanish konstantasi K_{kisl} bilan quyidagicha boglanadi:

$$K_r = \frac{K_{H_2O}}{K_{kisl}}$$

Ushbu tenglamadan K_{kisl} qanchalik kichik bolsa, K_g shunchalik katta bolishi koordinib turibdi. Boshqacha soz bilan aytganda kislota qanchalik kuchsiz bolsa, uning tuzlari shunchalik yuqori darajada gidrolizlanadi.

Kuchsiz asos bilan kuchli kislotadan tashkil topgan tuzlar uchun yuqoridagiga oxshash holda gidroliz konstantasi asosning dissotsilanish konstantasi K_{asos} bilan quyidagicha boglanadi:

$$K_r = \frac{K_{H_2O}}{K_{asos}}$$

Binobarin, asos qanchalik kuchsiz bolsa, u hosil qilgan tuzlar shunchalik yuqori darajada gidrolizlanadi.

Kuchsiz kislota bilan kuchsiz asosdan tashkil topgan tuzlar uchun gidroliz konstantasi kislota hamda asoslarning dissotsilanish konstantasi bilan quyidagicha boglanadi: $K_r = \frac{K_{H_2O}}{K_{kisl} \cdot K_{asos}}$

Gidroliz sanoatda va hayotda muhim ahamiyatga ega: sanoatda spirtlar, fenollar, oksimlik moylari va hayvon yogidan yuqori alifatik kislotalar olinadi. Murakkab efirlar, glikozid va amid boglari gidrolizi tirik organizmlar hayot faoliyatida muhim rol oynaydi.

Namunaviy masalalarni yechish

1-masala. 0,3m chumoli kislota HCOOH eritmasining dissotsialanish konstantasi $2,1 \times 10^{-4}$ ga teng. Uning shartli dissotsiyalanish darajasini hisoblang.

Yechish: Ostvaldning suyultirish qonuniga asosan $\mathcal{L} = \sqrt{\frac{K}{C}}$ bolgani

uchun $\mathcal{L} = \sqrt{\frac{2,1 \times 10^{-4}}{0,3}} = 2,64 \times 10^{-2}$ ga teng boladi.

2-masala. 0,005m moy kislota C_3H_7COOH eritmasining shartli disotsiyalanish darajasi 5,5% ga eng. Uning dis-sh konstantasini hisoblang.

Yechish: Masala shartiga ko'ra:

$$\mathcal{L} = 5,5\% \text{ yoki } 0,055;$$

$C = 0,055\text{m}$ bolgani uchun

$$K = \frac{\mathcal{L}^2 \times C}{1 - \mathcal{L}} = \frac{0,055^2 \times 0,055}{1 - 0,055} = 1,5 \times 10^{-5}$$

3-masala. Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasi 0.0001 mol/l g ga teng. Eritmaning vodorod ko'rsatgichi (pH-ni) hisoblang.

Yechish: Masala shartiga ko'ra

$$[H^+] = 0,0001 \text{ yoki } 10^{-4} \text{ mol/m bolgani uchun}$$


pH = -lg[H⁺] formuladan

$$\text{pH} = -\lg[10^{-4}] = 4 \text{ ekanini hisoblab topamiz.}$$


pH = 4 eritmaning muhiti pH < 7 kislotali

4-masala. BaCl₂ bilan $K_2Cr_2O_7$ eritmalarini orasida sodir boladigan reaksiyaning molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli tenglamalarini tuzing.

Yechish: a) reaksiyaning molekular tenglamasini tuzamiz:



b) Ionli tenglamalarda cho'maga tushgan (gaz hamda kam dissotsiyalangan) moddalar ionlarga ajralamsdan molekular shaklda yozilishini bilgan holda reaksiyaning ionli tenglamasini tuzamiz.



BaCrO₄ cho'kmasi hosil bolishida $2K^+$ va $2Cl^-$ ionlari reaksiyaga qatnashmaydi. Shuning bu ionlarni reaksiya tenglamsidan qisqartirib, reaksiyaning qisqartirilgan ionli tenglamani yozamiz:






5-masala: a) ZnCl₂ b) CH₃COONH₃ c) Cr₂S₃

Tuzlari gidrolizmning malekulyar va ionli tenglamalarni tuzing.

Yechish:

a) $ZnCl_2$ kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bołgan tuz. Shuning uchun $ZnCl_2$ gidrolizi kationlararo boradi:



b) CH_3COONH_4 kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bołgan tuz:

Shunga koła bu tuzning gidrolizi anionlar aro boradi



c) kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan x/b tuz. Shunga asosan bu tuzning gidrolizi ham kationlar aro, xam anionlar aro boradi va gidroliz oxirigacha boradi:



6-masala. 0,1 m ammoniy xlorid tuzi eritmasining gidrolizlanish konstantasini, gidrolizlanish darajasini hisoblang.

Yechish: Gidronizlanish konstantasini

$$K_{gidr} = \frac{1 \times 10^{-14}}{K_{asos}} \text{ tenglamasidan aniqlaymiz.}$$

$$K_{gidr} = \frac{1 \times 10^{-14}}{K_{NH_4OH}} \text{ jadvaldan } K_{NH_4OH} = 1,7 \times 10^{-8} \text{ ni topamiz.}$$

$$K_{gidr} = \frac{1 \times 10^{-14}}{1,7 \times 10^{-8}} = 0,58 \times 10^{-9}$$

$$\text{Endi } h = \sqrt{\frac{0,58 \times 10^{-9}}{10^{-1}}} = \sqrt{58 \times 10^{-8}} = 7,6 \times 10^{-4}$$



Nazorat uchun savol, mashq va masalalar

- Quyidagi elektrolitning bosqichli dissotsiyalanish tenglamalarini tuzing. K_2CO_3 , $Ca(HCO_3)_2$, $Cu(OH)_2$, $Cr(OH)_3$, $Al(OH)_2Cl$, $Cr_2(SO_4)_3$.
- Quydagisi moddalar eritmalarida qanday ionlar bo'ladi: H_2SO_4 , $NaHCO_3$, H_2S , $Mn(OH)_2$, HNO_3 , LiOH, CH_3COOH .
- 500g suvda 2,65g Na_2CO_3 ning eritlishidan hosil bo'lgan eritma - $0,251^{\circ}$ da muzlaydi. Shu eritmadi sodaning dissotsilanish darajasi nechaga teng? $K_{K_{suv}} = -1,86^{\circ}$.
- Quydagisi elektrolitning dissotsilanishini va dissotsilanish konstantasi ifodasini yozing: HCN, CH_3COOH , $HClO_3$, H_2S .
- Sulfid kislota 0,1 n eritmasining dissotsiyalanish konstantasining birinchi bosqichi $5,7 \times 10^{-8}$ ga teng. Shu kislota eritmasining disotsiyalanish darajasini toping.
- HNO_2 eritmasining dissotsiyalanish konstantasi 5×10^{-4} ga dissotsiyalanish darajasi 0,07 ga teng. Nitrit kislota eritmasining molarligini hisoblang.
- Toza suvgaga ishqor qo'shib, eritmadi OH^- ionli konsentratsiyasini 1×10^{-6} g ionlarga yetkazildi. H^+ ionlari konsentratsiyasini toping.
- Eritmadagi H^+ ionlar konsentratsiyasi $1,3 \times 10^{-5}$; $2,9 \times 10^{-9}$; va g-ionlariga teng. Eritmaning pH ini hisoblang.
- K_2S , KCN, $Al_2(SO_4)_3$, $CuCl_2$ tuzlarining gidrolizini molekulyar va ionli tenglamalarini yozing. Gidroliz natijasida muxitning pH-i qanday o'zgaradi?
- $AlCl_3$, K_2CO_3 , NaCl tuzlarining suvli eritmalarini qanday reaksiyani (nordon, neytral yoki ishqoriy) namoyon qiladi?


9-amaliy mashg'ulot

9. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari


Bir qator reaksiyalarda ishtirok etayotgan elementlarning valentliklari o'zgargani tajribalarda isbotlangan:



Kaliy va xlor atomlari o'zaro birikib KC1 hosil bo'lish reaksiyasi kaliy atomidan xlor atomiga elektron ko'chish bilan boradi. Ushbu reaksiyani ikki jarayonning amalga oshishi deb qarash mumkin:



Ushbu jarayonlarning har biri yarim reaksiya deyiladi. Ana shu yarimreaksiyalar yigindisi, ya'ni neytral atomlardan ion holatdagi zarrachalarning hosil boqlihi toqliq reaksiya hisoblanadi:



Shunday qilib, elektron yoqotish bilan boradigan reaksiyalar oksidlanish, elektron qabul qilish bilan boradigan reaksiyalar esa qaytarilish reaksiyalari deyiladi. Oksidlanishni oksidlanish darajasining oshishi, qaytarilishni esa oksidlanish darajasining kamayishi bilan boradigan jarayon deb belgilasa ham boladi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlanishga sabab boluvchi modda oksidlovchi deyiladi.

Oksidlovchi elektronni qoshib olib ozi qaytariladi. Shuningdek, qaytarilishni amalga oshiruvchi modda qaytaruvchi deyiladi. 2- reaksiyada vodorod xlorid - oksidlovchi, temir esa qaytaruvchidir. Reaksiyada qaytariluvchi modda doimo oksidlovchi, oksidlanuvchi modda esa qaytaruvchi hisoblanadi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari ayni bir vaqtida sodir boladi. Davriy jadvaldagi elementlarning oksidlovchilik va qaytaruvchilik xossalari ham davriy ravishda ozgaradi.

Oksidlanish darjasи

Molekulalarda atomlarning oksidlanish darjasini aniqlashda ularning tuzilish formulasidan foydalanish mumkin. Ammo amalda bu yoki kam qollanadi. Oksidlanish darjasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur.

1. Moddaning element holatidagi oksidlanish darjasи nolga teng. Na, Cl₂, N₂, R da har bir atomning oksidlanish darjasи nolga teng, chunki bog hosil bolishida ishtirok etayotgan elektronlar atomlar orasida baravar tarqaladi.

2. Birikmalarda, koproq elektromanfiylikka ega elementlarning oksidlanish darjasи manfiy, kamroq elektromanfiylikka ega bolganlarining oksidlanish darjasи musbat deb qabul qilinadi. Oksidlanish darjasining mutlaq kattaligi element valentligiga yaqinroq boladi yoki uning atomlarini hosil qiluvchi boglari orasida joylashgan elektron juftlari soniga teng boladi.

3. Har bir molekula yoki molekular ionda barcha atomlarning manfiy va musbat oksidlanish darjalari yigindisi umumiyliz zaryadga teng bolishi kerak. Elementlarning davriy jadvalidan ma'lum qonuniyat asosida ularning oksidlanish darjalarini bilib olish mumkin.

Quyidagi 9.1-jadvalda ba'zi elementlarning reaksiyalarda ko'proq uchraydigan oksidlanish darajalari keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, elementlarning valentliklari ikkiga, uchga, toortga, beshga va hatto oltiga ham teng bo'lishi mumkin. Bu jihatdan azot, marganes, brom va boshqa elementlar diqqatga sazovor. Elementlarning yuqori va quyi oksidlanish darjasini atomning tartib raqami bilan davriy ravishda bog'liq ekanligi ham yaqqol ko'rinish turibdi. Ishqoriy metallar birikmalarida oksidlanish darajalari +1 ga teng. Bu elementlar boshqa elementlar bilan birikib kimyoviy bog' hosil qilishida bitta elektron berib musbat zaryadlangan ionga aylanadi. 2A guruh elementlari +2 oksidlanish holatida, 3A guruhdagi tabiatda ko'p uchraydigan aluminiy doimo +3 ga teng bo'lgan oksidlanish darajasini namoyon qiladi.

Davriy jadvaldagagi dastlabki elementlarning oksidlanish darjasasi. 9.1-jadval.

Element nomi	Atomning tartib raqami	Oksidlanish darjasasi
Litiy	3	+1
Berilliyl	4	+2
Bor	5	+3
Uglerod	6	+2;+4;-4
Azot	7	+1;+2;+3;+4;+5;-3
Kislород	8	-2
Ftor	9	-1
Natriy	11	+1
Magniy	12	+2
Aluminiy	13	+3
Kremniy	14	+4; -4
Fosfor	15	+5;-3
Oltingugurt	16	+4; +6; -2
Xlor	17	+7;-1
Kaliy	19	+1
Kalsiy	20	+2
Skandiy	21	+3
Titan	22	+3; +4
Vanadiy	23	+4; +5
Xrom	24	+2; +3; +6
Marganets	25	+2;+3;+4;+5;+6;+7
Temir	26	+2; + 3
Kobalt	27	+2; + 3
Nikel	28	+2; + 3
Mis	29	+1; + 2
Rux	30	+2

Galliy	31	+3
Germaniy	32	+2; +4; -4
Mishyak	33	+3; +5; -3
Selen	34	+4; +6; -2
Brom	35	+1; +3; +5; -1
Kripton	36	+4

Kuchli elektromanfiy element boʻlgan fтор doimo -1 ga teng oksidlanish darajasiga ega boʻladi. Kislorod asosan -2 ga teng oksidlanish holatida uchraydi. Faqat peroksidlarda ushbu qoidadan chetga chiqiladi. NO_2^- -peroksid ionida va peroksid molekulalarida kislorodning oksidlanish darjasasi -1 ga teng boʻladi.

Shunday qilib, biror birikmadagi atomlar butunlay ionlarga aylangan, deb faraz qilinganda modda tarkibidagi istalgan elementlarning shartli zaryadi ayni elementning oksidlanish darjasasi deb qabul qilinadi.

Oksidlanish darajasini aniqlashda kislorodning oksidlanish darjasasi doimo -2 ga, vodorodniki esa +1 ga tengligidan foydalaniladi. Erkin elementlarning oksidlanish darjasasi nolga teng boʻladi.

Suvda vodorodning oksidlanish darjasasi +1, kislorodniki -2. Osh tuzida natriyniki +1, xlorniki -1. Kaliy permanganat (KMnO_4) da boʻlgan marganes atomining oksidlanish darjasini aniqlash uchun kislorodning oksidlanish darjasasi -2 ga tengligini hisobga olib, quyidagi tenglamadan foydalanish kerak: $\text{K}^{+1}\text{Mn}^x\text{O}_4^{-2}$

$$\begin{aligned} I + X + 4(-2) &= 0 \\ X &= +7 \end{aligned}$$

Bu yyerda; X - marganesning oksidlanish darjasasi.


Kaliy permanganat KMnO_4 da marganesning oksidlanish darjasasi +7 ga, sulfat SO_4^{2-} ionida oltingugurtning oksidlanish darjasasi +6 ga, NO_3^- ionida azotning oksidlanish darjasasi +5 ga teng. Metanda uglerodning oksidlanish darjasasi -4 ga, uglerod (II)-oksid (SO_2) da +4, formaldegid (CH_2O)da nolga, chumoli kislota HCOOH da +2 ga va etilenda -2 ga teng. Buning boisi "oksidlanish darjasasi" ning formal tushuncha ekanligidir. Bunda kutbli va kovalent birikmalar ham ionli birikmalar sifatida qaraladi, yaʼni u haqiqiy bogʼlanishlarni ifodalamaydi. Shunday boʼlsada, bu tushuncha anchagina masalalarni hal qilishda qoʼl keladi. Reaksiyaga kirayotgan moddaning qaysi biri oksidlovchi, qaysi biri qaytaruvchi ekanligini bilib olishga yordam beradi.

9.2.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari

Mazkur reaksiyalarning uch turi bolib, bular quyidagilar:

- 1) molekulalararo (ionlararo) reaksiyalar;
- 2) molekula (ion) da sodir boladigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlari;
- 3) oksidlovchilik va qaytaruvchilik vazifalari mazkur element atomlarining ozi bajaradigan disproporsiyalanish reaksiyaları.


Birinchi turdagı reaksiyalarda oksidlovchi element bir modda tarkibida, qaytaruvchi element esa ikkinchi modda tarkibida boladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları borayotganda har xil molekulalardagi elementlarning oksidlanish darajasi ozgaradi:



Bunda nikelning oksidlanish darajasi pasayadi, uglerodniki ortadi.


Ikkinchi tur reaksiyalarda ayni bir molekula tarkibiga kiruvchi turli elementlarning oksidlanish darajasi ozgaradi.

Quyidagi reaksiyada:



Xlor ioni Cl^{+5} oksidlovchi, kislorod ioni O^{-2} qaytaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Uchinchi turga kiruvchi disproporsiyalanish reaksiyasiga misol qilib, laboratoriyyada toza azot olishda qollaniladigan ammoniy nitritning parchalanishini korsatish mumkin:



Bu yyerda: NH_4^+ ioni oksidlanib, NO_2^- ioni esa azotga aylanib qaytariladi.


9.3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları tenglamalarini tuzish

